

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti

Avazmurotov Rashid Baxtiyarovichning

5440500- GEOGRAFIYA ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu. Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati.

Ilmiy rahbar:

g.f.n. Dusanova Sh.

Urganch 2013-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiatshunoslik va Geografiya fakultetining

Geografiya kafedrası

Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini
rivojlanishidagi ahamiyati.

Bajaruvchi

Avazmurotov Rashid.

Rahbar

g.f.n. Dusanova Sh.

Urganch shahri 2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiatshunoslik va Geografiya fakultetining

Geografiya kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba Avazmurotov Rashidga Universitet rektorining «№ 6-T §-1»-sonli 12.01.2013 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun

«Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati» mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan g.f.n. Dusanova Sh. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:

Kirish, 3 bob. xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar

Viloyat va tuman statistik va internet ma'lumotlaridan olinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>No</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	11.05.2012y
	Malakaviy bitiruv ishi topshirig'i mavzuni va hajmini aniqlash	07.09.2012 y
	Maxsus adabiyotlarni o'rganish, loyiha bo'yicha psixologik-pedagogik, metodik va amaliy materiallarning yigilishi.	24.11.2012 y gacha
	Loyiha bo'yicha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish	03.12.2012y
	Tajriba ishi (o'qish) larni tashkil qilish va o'tkazish sifati (maktab, kollej...)	14.01.2013 y
	Malakaviy bitiruv ish loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash	11.02.2013 y
	Malakaviy bitiruv ishini elektron varianti loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash	09.03.2013 y
	Barcha eskizlarini to'la tasdiqlash va malakaviy bitiruv ishi loyihasi nazariy va amaliy qismlarini tasdiqlash.	23.03.2013 y
	Malakaviy bitiruv ishi loyihasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy hamda amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi	20.04.2013 y
	Kafedra mudiri va rahbar tomonidan tugallangan loyihani ko'rikdan o'tkazish	11.05.2013 y
	Tugallangan ishni malakaviy bitiruv ishi loyihasi rahbar xulosasi va uni himoyaga tavsiya bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	28.05.2013 y
	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>

Bitiruv malakaviy ish rahbari: g.f.n.Dusanova Sh.

Bajaruvchi talaba: Avazmurotov Rashid.

2012 yil «11» may. Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi . («16 »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: Dots. Avezov S. .

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING

MULOHAZALARI

Talaba: Avazmuratov Rashid.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: : Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: : 56 matn bet

Tushuntirish qismi: Bitiruv malakaviy ish belgilangan talablar asosida yozilgan

Mavzuning dolzarbligi:

Arid iqlimli o'lkalarda keng tarqalgan va shakllanish tarixi zamon va makonda bir necha ming yillarga ega bo'lgan voha agroiqlimi O'rta Osiyo geosistemalari tarkibida alohida o'rin egallaydi. Agroiqlim resurslari O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm vohasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni alohida mustaqil tabiat unsuri sifatida o'rganishga, tadbiriq etishga va qishloq xo'jaligiga ta'siri borasidagi ahamiyatiga ham geograflar tomonidan e'tibor berila boshlandi.

Chunki qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri agroiqlim resurslari hisoblanadi. Chunki arid hududli Xorazm viloyatining tabiiy sharoitida qishloq xo'jaligi uchun iqlimiy hodisalar ya'ni yilning iliq davrida qora sovuqlar, qurg'oqchilik, quruq issiq shamol garmsellar noqulayliklar tug'diradi. Shuning bilan bir qatorda, o'simliklarning vegetatsion davrida quyosh radiatsiyasi va issiqlikning yuqoriligida agroiqlim hamda yer resurslaridan foydalanishni cheklovchi bosh omil suvning yetishmasligi hisoblanadi. Quyosh nurlarining har kv.km.yuzaga tushadigan miqdori 140 - 145 kkaloriyaga tengligi va bug'lanishning yuqoriligi dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishiga va ular hosildorligini oshishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi.

Umumkasbiy fanlarni to'liq o'zlashtirgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari.

Talaba o'z oldiga qo'yilgan geografik muammolarni mustaqil yecha oladi. Internetdan foydalanib biladi, Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida tirishqoqligi, intiluvchanligi va muomalasi bilan talabalar va ustozlari orasida yetakchilik xususiyetiga ega.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari.

Statistik ma'lumotlaridan va internet ma'lumotlaridan foydalanib Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablar asosida bajarilgan

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

g.f.n. Dusanova Sh

Urganch davlat universiteti Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi Avazmurotov Rashidning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi « Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati»

Malakaviy ishning hajmi 11001 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 56 sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.

Agroiqlim resurslari O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm vohasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni alohida mustaqil tabiat unsuri sifatida o'rganishga, tadbqiq etishga va qishloq xo'jaligiga ta'siri borasidagi ahamiyatiga ham geograflar tomonidan e'tibor berila boshlandi.

Chunki qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri agroiklim resurslari hisoblanadi. Chunki arid hududli Xorazm viloyatining tabiiy sharoitida qishloq xo'jaligi uchun iqlimiy hodisalar ya'ni yilning iliq davrida qora sovuqlar, qurg'oqchilik, quruq issiq shamol garmsellar noqulayliklar tug'diradi.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishni bajarish uchun oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, hamda ishning ilmiy va amaliy ahamiyati asosli ravishda yoritilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari Muallif ishni bajarishda 28 ta mavzuga oid ilmiy manbalardan, adabiyotlar shuningdek internet ma'lumotlaridan foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda iqlimiy jihatdan o'rganishda va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar.

Ishda ayrim orfografik va imloviy kamchiliklar mavjud. Ayrim grafiklar kompyuterda chizishda idiallashtirilgan .

Avazmurotov Rashidning «Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi hajmi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati jihatidan, bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi va u muvaffaqiyatli himoya qilinishi mumkin.

Geografiya kafedrası o'qituvchisi:

Xudayberganova R.

Urganch davlat universiteti Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi Avazmuratov Rashidning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi «Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati»

Malakaviy ishning hajmi 11001 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 56 sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.

Xorazm viloyatining tabiiy sharoitida qishloq xo'jaligi uchun iqlimiy hodisalar ya'ni yilning iliq davrida qora sovuqlar, qurg'oqchilik, quruq issiq shamol garmsellar noqulayliklar tug'diradi. Shuning bilan bir qatorda, o'simliklarning vegetatsion davrida quyosh radiatsiyasi va issiqlikning yuqoriligida agroiklim hamda er resurslaridan foydalanishni cheklovchi bosh omil suvning yetishmasligi hisoblanadi. Quyosh nurlarining har kv.km.yuzaga tushadigan miqdori 140 - 145 kkaloriyaga tengligi va bug'lanishning yuqoriligi dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishiga va ular hosildorligini oshishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning

tarkibi va bajarilish sifati: Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishni bajarish uchun oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, hamda ishning ilmiy va amaliy ahamiyati asosli ravishda yoritilgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari Muallif ishni bajarishda 28 ta mavzuga oid ilmiy manbalardan, adabiyotlar shuningdek internet ma'lumotlaridan foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda iqlimiy jihatdan o'rganishda va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar.

Ishda ayrim orfografik va imloviy kamchiliklar mavjud. Ayrim grafiklar kompyuterda chizishda idiallashtirilgan .

Avazmuratov Rashidning «Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi hajmi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati jihatidan, bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablarga javob beradi va u muvaffaqiyatli himoya qilinishi mumkin.

Urganch shahar Avtomobillar va yo'llar

kolleji geografiya o'qituvchisi :

Raximova Q.

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	5
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	10
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha xarita va turli illyustrativ materiallar bilan jihozlanganligi.	10

Urganch davlat universiteti Tabiatshunoslik va Geografiya Fakulteti

Geografiya yo'nalishining bitiruvchisi Avazmuratov Rashidning

«Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati» mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____» 2013

yil «____» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha xarita va turli illyustrativ materiallar bilan jihozlanganligi.	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Avazmurotov Rashidning «Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati» mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

DAK raisi: O'zMU, "Ijtimoiy geografiya va demografiya" kafedrasida professori, g.f.d.A.S.Soliyev.

A'zolari:

Rais muovini: Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani, k.f.n. dots. X.Polvonov.

A'zo: Geografiya kafedrasida mudiri, g.f.n., dots. S.Avezov.

A'zo: Geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.n. Sh.Do'sanova.

A'zo: Bog'ot tumani Iqtisodiyot KHK geografiya fani o'qituvchisi M.Xudoyberganova.

Urganch davlat universiteti Tabiatshunoslik va Geografiya Fakulteti geografiya kafedrasida.

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchi. Avazmurotov Rashid

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi. « Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyati ».

Ilmiy rahbar. g.f.n. Dusanova Sh.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «_____»_____da o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib geografiya kafedrası o'qituvchisi Xudayberganova R va Urganch shahar Avtomobillar va yo'llar kolleji geografiya o'qituvchisi Raximova Q.lar tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. Avezov S.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots.Polvonov X.

Urganch davlat universiteti Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti
“Geografiya” kafedrası Geografiya yo’nalishi 5440500 ta’lim bakalavri

Tasdiqlayman

fakultet dekani

dots. _____

“ ____ ” _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba. Avazmuratov Rashid.

Ishning mavzusi: «Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo’jaligini rivojlanishidagi ahamiyati»

«12»yanvar 2013 yil universitet rektorining №6-T §-1 sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan

2. Ishni topshirish muddati: “28” may 2013 y.

3. Mavzu bo’yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro’yxati

1. Allaberganov T.X Prirodniye usloviya Xorezmskogo oazisa i ego rayonirovaniya. Toshkent. “O`qituvchi”, 1976. C.143.

2. Baratov P. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, “O`qituvchi”, 1996. 264 b.

3. Vsemirnaya meteorologicheskaya organizatsiya, nash budushiy klimat. BMO, 2003.

4. Berdin B.X., Vasilyev S.V., Danilov-Danilyan V.I., Kakorin A.O., Kurayev C.H.

Kiotskiy protokol – voprosi i otveti. WWF Rossii, Rossiyskiy rehionalniy ekologichiskiy sentr, Nasionalniyi uglerodnoe soglasheniya. --

M., 2003. C.136. www.wwf.ru.

5.Komilov O.K. O`zbekiston sho`r tuproqli yerlarida sug`orish sistemasini yaxshilash. Toshkent: FAN,1985.72-77-Betlar.

6.Vliyaniye izmeneniya klimata na ekosistemi.Oxranyayemie prirodniye terotorii Rossiyii.WWF.-M.:WWF,2001.C.146.www.wwf.ru.

7.Grabb M., Vrolik K., Brek D.. Kiotskiy protokol.Analiz i interpretatsiya.Per.c angl.Red.russkogo izdaniya L.Skuratovskaya,a.Kokorin ,-M.: Nauka, 2001.C.303.www.wwf.ru.

8. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari

4. Ishning maqsadi. Viloyatda iqlim resurslardan foydalanishning turli muddatlarga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish bilan qishloq xo'jalik tarmoqlarini istiqbolda muntazam rivojlantirish, eng muhimi barcha sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sohalarini xom ashyo bilan muttasil ta'minlashga erishiladi. Sug'orma dehqonchilikda yerdan hamda suvdan foydalanishda ularning samaradorligi ortib borishi munosabati bilan yalpi hosildorlikning ham ortishi kuzatiladi, bu esa o'z navbatida tovar mahsulotining yil sayin ko'payib borishiga ta'sir etadi.

5. Chizma materiallar ro'yxati:

a).Xorazm viloyatida o`rtacha yog`in miqdori., b) Viloyatda tuproq haroratining o`zgarish grafigi, v) viloyatda havo haroratining o`zgarishi grafigi, g) viloyatda shamollar faoliyati grafigi.(Urganch va Xiva meteologik stansitalari ma'lumotlari bo`yicha).

Xorazm viloyatidagi namgarchilk davri ilqim grafiklari .

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.S.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Kirish	Dusanova Sh.	2.12.2012	5.01.2013
1- bob. Xorazm viloyati tabiiy geografik o`rniga qishloq xo`jaligi jihatidan baho berish.	Avezov S.	6.01.2013	20.01.2013
1.1.Viloyat tabiiy geografik o`rni agroiqlimning shakllanishidagi ahamiyati.	Dusanova Sh.	21.01.2013	15.02.2013
1.2.Viloyatda qishloq xo`jaligini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi omillar.	Dusanova Sh.	16.02.2013	26.02.2013
1.3.Agroiqlim resurslarining tuproqning shakllanishidagi o`rni.	Avezov S.	27.02.2013	15.03.2013

<p>II-bob. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida agroiqlimiy resurslaridan samarali foydalanishning kelajakdagi istiqbollari.</p>	<p>Dusanova Sh.</p>	<p>16.03.2013</p>	<p>5.04.2013</p>
<p>2.1 Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishida agroiqlim resurslaridan samarali foydalanish</p>	<p>Dusanova Sh.</p>	<p>6.04.2013</p>	<p>28.04.2013</p>
<p>2.2 Viloyatda paxtachilik va don xo`jaligini rivojlantirishda agroiqlimiy resurslarning ahamiyati</p>	<p>Dusanova Sh.</p>	<p>29.04.2013</p>	<p>10.05.2013</p>
<p>III-bob. Viloyatda ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.</p>	<p>Avezov S.</p>	<p>11.04.2013</p>	<p>25.04.2013</p>

3.1. Ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.	Dusanova Sh.	26.04.2013	7.05.2013
3.2 Viloyat agrosanoatini rivojlantirishda agroiqlim resurlaridan samarali foydalanish	Dusanova Sh.	8.05.2013	14.05.2013
xulosa	Dusanova Sh.	15.05.2013	25.05.2013

Ilmiy rahbar:

g.f.n. Dusanova Sh.

BMI bajaruvchi talaba:

Avazmurotov Rashid .

Kafedra mudiri:

dots. Avezov S.

R E J A.

Kirish.

I- bob. Xorazm viloyati tabiiy geografik o`rniga qishloq xo`jaligi jihatidan baho berish.

1.1. Viloyat tabiiy geografik o`rnini agroiklimning shakllanishidagi ahamiyati.

1.2. Viloyatda qishloq xo`jaligini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi omillar.

1.3. Agroiklim resurslarining tuproqning shakllanishidagi o`rni.

II-bob. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida agroiklimiy resurslaridan samarali foydalanishning kelajakdagi istiqbollari.

2.1 Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishida agroiklim resurslaridan samarali foydalanish.

2.2 Viloyatda paxtachilik va don xo`jaligini rivojlantirishda agroiklimiy resurslarning ahamiyati.

III-bob. Viloyatda ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.

3.1 Ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.

3.2 Viloyat agrosanoatini rivojlantirishda agroiklim resurslaridan samarali foydalanish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi . Arid iqlimli o'lkalarda keng tarqalgan va shakllanish tarixi zamon va makonda bir necha ming yillarga ega bo'lgan voha agroiqlimi O'rta Osiyo geosistemalari tarkibida alohida o'rin egallaydi. Agroiqlim resurslari O'zbekistonda, ayniqsa Xorazm vohasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib , ularni alohida mustaqil tabiat unsuri sifatida o'rganishga, tadbiiq etishga va qishloq xo'jaligiga ta'siri borasidagi ahamiyatiga ham geograflar tomonidan e'tibor berila boshlandi.

Chunki qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri agroiqlim resurslari hisoblanadi. Chunki arid hududli Xorazm viloyatining tabiiy sharoitida qishloq xo'jaligi uchun iqlimiy hodisalar ya'ni yilning iliq davrida qora sovuqlar, qurg'oqchilik, quruq issiq shamol garmsellar noqulayliklar tug'diradi. Shuning bilan bir qatorda, o'simliklarning vegetatsion davrida quyosh radiatsiyasi va issiqlikning yuqoriligida agroiqlim hamda yer resurslaridan foydalanishni cheklovchi bosh omil suvning yetishmasligi hisoblanadi. Quyosh nurlarining har kv.km.yuzaga tushadigan miqdori 140 - 145 kkaloriyaga tengligi va bug'lanishning yuqoriligi dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishiga va ular hosildorligini oshishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Xorazm viloyati agroiqlim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining maqsadi va vazifalari.

Tabiat unsurlaridan oqilona foydalanish jarayoni murakkab va majmualiligi bilan tavsiflanganligi tufayli resurslarni qishloq xo'jalik muomalasiga kiritilayotganda hududning ekologik vaziyatiga yetarli e'tibor bermaslik natijasida ma'lum muddatdan so'ng uning turli toifalardagi oqibatlar shakllana boshlaydi. Ba'zan bu oqibatlar tez muddatlarda, ayrim hollarda kech sodir bo'lishi natijasida atrof-muhit degradatsiyasining yuz berishi va rivojlanishi ham uzoqqa cho'zilishi mumkin. Bunda hududning ekologik vaziyatini qisqa vaqtda keskin o'zgarishini ham sodir bo'lish yoki bo'lmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Buni tabiiy komplekslarning strukturali dinamik holatining yo'nalish xususiyatlarini o'rganish bilan aniqlash mumkin.

Tabiiy resurslarni o'zlashtirish jarayonida yuqorida tavsiflangan nohush hodisalarni ro'y bermasligini oldini olish maqsadida hamda ulardan oqilona va samarali foydalanish tamoyillariga tayanib, qishloq xo'jalikni barqaror boshqarish uchun agrolesurslarni ekologik-geografik jihatdan asoslangan holda muomalaga kiritish ayni muddaodir. Bu borada tabiatdan foydalanish jarayonini ekologik va geografik qonunlar hamda qonuniyatlarga asoslangan tarzda asosiy tamoyillari va uslublarini ishlab chiqish amaliy ahamiyat kasb etadi. Lekin bu umumiy metodologik asos, aslida har bir landshaft yoki landshaftlar guruhi uchun ilmiy tamoyil va uslublar tizimi asoslanishi lozim.

Tabiatdan foydalanishning ekologik-geografik asoslari nazariy jihatdan o'rganilgan holda mazkur hududning tabiatidan foydalanishning uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini tavsiflash amaliy ahamiyatga ega.

Viloyatda iqlim resurslardan foydalanishning turli muddatlarga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish bilan qishloq xo'jalik tarmoqlarini istiqbolda muntazam rivojlantirish, eng muhimi barcha sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sohalarini xom ashyo bilan muttasil ta'minlashga erishiladi. Sug'orma dehqonchilikda yerdan hamda suvdan foydalanishda ularning samaradorligi ortib borishi munosabati bilan yalpi hosildorlikning ham ortishi kuzatiladi, bu esa o'z navbatida tovar mahsulotining yil sayin ko'payib borishiga ta'sir etadi.

Agrolesurslardan qishloq xo'jaligida foydalanish qanchalik ilmiy asoslanmasin va unga rioya qilinmasin tabiiy komplekslarning barqarorlik darajalari va boshqa sabablarga ko'ra malum tabiiy jarayonlarning vujudga kelishi, shakllanishi, rivojlanishi kuzatiladi, buni esa qishloq xo'jaligidan olinadigan mahsulot daromadidan bilish mumkin.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni yechish kerak:

- Xorazm viloyati agroiklim resurslarining qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish ;

- Qishloq xo'jaligini rivojlanishida yer usti suv oqimlarining va suv inshootlarining ta'sirini o'rganish;

- Paxtachilik majmuasini rivojlantirishda agroiqlim resurslarining ahamiyatini o'rganish ;

- agroiqlim resurslarini muxofoza qilishning tabiiy geografik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning uslub va uslubiyati Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, turli professor olimlarning mavzu doirasida olib borgan tadqiqotlaridan foydalanildi.

Shuningdek tahlil yuritishda induksiya, deduktsiya, tahlil va bog`liqlik, mavsumiylikdan aniqlikka siljish usullari bilan bir qatorda analiz, sintez, statistik va matematik ko'rsatkichlardan foydalanildi.

I-bob. Xorazm viloyati tabiiy geografik o`rniga qishloq xo`jaligi jihatidan baho berish.

1.1 Viloyat tabiiy geografik o`rnining agroiklimning shakllanishidagi ahamiyati.

Xorazm viloyati Respublikamizning shimoli-g`arbiy qismida Orol dengizidan 300 km uzoqlikda, Amudaryoning quyi qismida, geografik jihatdan 30^0 va 40^0 shimoliy kengliklar, $60-62^0$ sharqiy uzunliklar oralig`ida joylashgan.

Viloyatning umumiy maydoni taxminan 6,05 ming kv.kmni tashkil qiladi. Uning 80 foizdan ortiq hududi (4,5 ming kv.km) Amudaryoning chap sohilida, qolgan 20 foiziga yaqin hududi esa o`ng sohilida (1,8 ming kv.km) joylashgan. O`ng sohilidagi hududlar Buxoro, Navoiy viloyatining o`zlashtirilmasdan yotgan qismlarini Xorazm viloyatiga berilishi munosabati bilan vujudga kelgan.

Xorazm viloyati yer maydoni jihatidan Respublikamizda Sirdaryo (5.1 ming kv.km) va Andijon (4.2 ming kv.km) viloyatlaridagina maydoni katta bo`lib, yer maydoni kattaligi bo`yicha 10- o`rinni egallaydi.

Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani hududidagi Olchin qishlog`i yaqinidagi Nuranbobo to`qayiga to`g`ri kelsa, janubiy chekka nuqtasi esa Tuproqa`ladan bir muncha janubda joylashgan.

Viloyat shimoli-g`arbdan janubi- sharqqa 280 km ga cho`zilgan. Viloyatning Urganch shahri joylashgan kenglikdagi g`arbdan sharqqa uzunligi 80 km atrofida.

Viloyat shimoldan Turkmaniston va Qoraqolpog`iston bilan, g`arbiy va janubiy chegaralari esa Qoraqum orqali yana Turkmanistonga to`g`ri keladi. Yuqoridagi chegaralarning barchasi tekisliklardan o`tadi. Sharqiy chegara Amudaryo orqali Qoraqolpog`iston Respublikasi, janubiy sharqiy chegara esa, Amudaryoning o`ng qirg`og`ida Buxoro viloyatlari orqali o`tadi.[37]

Xorazm viloyati aholisining soni 2005-yilning 1-yanvar holatiga ko`ra 1447,7 ming kishini tashkil qiladi.

Xorazm viloyati aholisining o`rtacha zichligi bo`yicha (har 1 km/ maydonga o`rtacha hisobda) Andijon (464,6) Farg`ona (337.7) va Namangan (315,0) viloyatlaridan so`ngi 4-o`rinda turadi. Xorazm viloyatida o`rta hisobda har 1 km/ maydonda 239,3 kishi istiqomat qiladi.

Viloyat aholisining 57,23 foizini bolalar, 6.8 foizini o`spirinlar va 35,97 foizini katta yoshdagi insonlar tashkil qiladi. Shulardan 23.5 foiz shaharlarda, 76.5 foiz qishloqlarda istiqomat qiladilar.[9]

Viloyatning eng uzun chegarasi janub va g`arbiy tomondan Qoraqum cho`liga to`g`ri keladi, bu qum Kopettog` va Kaspiy dengizi bo`ylarigacha boradi. Bu qum asosan uchlamchi davr va bo`r davri jinslaridan tashkil topgan. Qoraqumning usti esa sariq qum tepaliklardan iboratdir. Qoraqum nomining kelib chiqishi, qumning rangiga emas balki ularning xilvat, hayotsiz ko`rinishiga qarab qo`yilgan nomdir. Bu nom aslida "Yovuz qumlar" demakdir. Qoraqum vohaning janubiy chekkesi bo`ylab "katta yoy" hosil qiladi. Bazi hududlarda qumlar vohaning ichki qismlariga suqilib kirgan. Buni Xiva va Yangiariq tumanlari atrofida ham ko`rish mumkin. Qoraqum allyuvial tekislikdan 20-30 baland metr ko`tarilgan. Vohaga suqilib kirgan qumli joylarda ular o`simliklar bilan mustahkamlangan. Bu yerda qum tepaliklar va shamol ta`sirida osonlik bilan ko`chib yuradigan sochma barxanli qumlar uchraydi. Viloyatning Amudaryodan o`ng qirg`og`idagi hududi janubiy va g`arbiy qizilqumlar bilan chegaralanadi. Qizilqum relyefi uni tashkil etgan bo`r davri jinslari bilan mustahkam aloqaga ega.

Xorazm viloyatining janubiy qismidagi Toshsaqa platosi, Zaunguz qumlari asosan ohaktoshlardan va qumlardan tashkil topgan. Ularning tagida Paleogen davrining mergel loylari ham uchraydi. Amudaryoning hozirgi vodiysi asosan uning chap qirg`og`ini egallaydi.

Daryo vodiysining kengligi bir necha yuz metrdan ba`zi joylarda 7-8 kilometrgacha boradi. Viloyat hududini qoplab olgan allivual jinslar bir necha santimetrdan 20-30 mgacha yetadi. Xorazm hududini yer usti tuzilishi jihatdan asosan ikkita qismga bo`linadi:

1. Dengiz sathidan 100-110 m balandlikda bo`lgan shimoliy hududi.

2. Dengiz sathidan 120-150 metr baland bo`lgan chekka janubiy qismlarga bo`lish mumkin.

Viloyat yer yuzasi tuzilishining asosiy qismi tekisliklardan iborat bo`lib, janubi-sharqdan shimolga qarab sekin asta qiyalashib boradi. Viloyatning dengiz sathidan

o`rtacha balandligi 110-120 metr. Amudaryo vodiysi qirg`oqlari ham daryo o`zani tomon pasayib boradi, hamda atrofidagi hududlarga tomon asta sekin tutashib ketadi.

Tuyamo`yin suv omboridan boshlab daryo vodiysi ancha muncha kengayib boradi.

Tuyamo`yin suv ombori qurilishiga qadar viloyatda tez-tez suv bosishlari bo`lib, daryo qayirlarini qirg`oqlarini tez-tez suv bosib "deygish" hodisalari bo`lib turgan.

Lekin odamlar suv bosish havflarining oldini olish maqsadida dambalar (qochilar) qurib tashladilar.

Amudaryo qirg`oqlarida bir necha o`nlab kilometr masofada dambalardan tarkib topgan relyef shakllari ancha maydonni egallaydi.

Insonning yuz yillardan buyon qilayotgan mehnat faoliyati oqibati tabiiy yer yuzasini o`zgartirgan hamda antropogen lanshaftlarni hosil qilgan.

Qadim zomondan Xorazm viloyatida sug`orish ishlarining yaxshi rivojlanganligi va tuproqlarga juda ko`p ishlov berilishi tufayli voha yer yuzasi tuzilishi ancha tekislashib ketgan.

Viloyat hududida yuz yillar oldin qazilgan kanallar bilan birga, o`nlab yangidan qazib bunyod etilgan ariqlar (salmalar), oqava suvlar uchun qazilgan zovurlar (zaxkashlar), suv inshootlari, ariq (solma), zovurlarni tozalashdan hosil bo`lgan past baland tepalar voha yer yuzasini ozgina past baland qilib turadi.

Qoraqum va Qizilqum cho`llariga yondosh bo`lgan hududlarda shamol faoliyati ta`sirida vujudga kelgan relyef shakllari ham uchraydi.

Viloyat hududida Amudaryo suvlari oqizib keltiradigan allyuvial relyef shakllari ko`p uchraydi. Keyingi vaqtda Tuyamo`yin suv omborining qurilishi natijasida daryo keltiradigan unumdor gil juda kam, bazi hududlarga umuman kelmay qo`ydi.

Bular voha relyefining shakllanishida sezilarli ta`sir ko`rsatadi. Avvallari Amudaryo har yili gektariga 120-150 kilogramm unumdor loyqa yotqizgan. Viloyatdagi cho`kindi loyqa qatlamlarning o`rtacha qalinligi 70-80 metrga yetadi.

Viloyat hududining katta qismi Kaynozoy erasining to`rtlamchi davri va hozirgi zamon yotqiziqlaridan tashkil topgan.

Viloyatning Qoraqum va Qizilqum cho`li bilan chegaradosh janubiy hududlarida qisman Neogen yotqiziqlari ham uchraydi.

Viloyatning Amudaryo o`ng qirg`og`idagi ayrim hududlarida orollar tarzida Mezazoy erasining bo`r davri va Paleogen davrining yotqizilari tarqalgan. Xorazm viloyati hududi ham Turon platformasining bir qismi sanaladi.

Million yillar davomida bu hudud dengiz tagida bo`lgan, keyinchalik ularning chekinishi sababli quruqlikka aylanib qolgan. Viloyat hududida kristalli, dengiz va allyuvial cho`kindi jinslar keng tarqalgan. Mezazoy erasida va Paleogen davrida viloyat hududi chuqur dengizning tagi bo`lgan. Daryoning qirg`og`idagi Sulton Uvays tog`lari orol tarzida dengizdan ko`tariladi. Dengizda har xil qisqichbaqalar, mikrofaunalar bilan bir qatorda yirik baliqlar ham yashagan.

Umuman olganda Xorazmning geologik qismida 4 ta tipdagi yotqizilarni uchratish mumkin. Bular:

1. Qadimgi kristalli jinslardan tashkil topgan hududlar.
2. Amudaryoning o`ng qirg`og`idagi bo`r yotqizilardan tashkil topgan hududlar.
3. Tuyamo`yin atroflarida Paleogen jinslardan iborat bo`lgan hududlar.
4. Neogen jinslardan iborat Jaung`uz Qoraqumi.


Xorazm viloyati seysmik jihatdan 7 balli zonaga kiradi, ammo bunday kuchdagi zilzilalar har 1000 yilda takrorlanishi mumkin.[11]

Viloyat foydali qazilmalarga bir muncha kambag`al, bu joyda ko`p miqdorda g`isht xom ashyosi, silikat materiallar ishlab chiqarish uchun qum, shag`al va boshqa xil qurilish materiallari uchraydi xalos.

Xorazm vohasini tabiiy-geografik rayonlashtirish masalalari bilan ko`pgina geograf olimlar shug`ullanganlar. E.M.Murzayev, N.D.Dolimov, N.A.Kogay , L.N.Babushkin, T.Ollaberganov kabi tadqiqotchilar viloyat hududini mustaqil tabiiy rayon sifatida ajratib ko`rsatganlar. www.unisef.int

Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to`siqlarning yo`q bo`lganligi tufayli Arktika va Sibir tarafdin sovuq havo massalarining bemalol kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Viloyat iqlimi keskin kontinental, yani quruq, yozi issiq qishi sovuq bo`lib, yillik amplituda juda yuqori. Maksimal va minimal haroratlar

orasidagi farq 78 gradusga yetadi. Orol dengizi viloyat iqlimining tarkib topishida sezilarli ro`l o`ynasa, voha iqlimining vujudga kelishida Qizilqum va Xorazm viloyatining Litologo-Geomorfologik kartasi.1. 1.1-rasm.



Avezov S. ma`lumoti asosida ishlangan.

Qoraqum cho`llari ham muhim ro`l o`ynaydi. Viloyat hududining qumlar bilan o`ralganligi havo haroratining +43,+45 gradusgacha ko`tarilishiga imkoniyat yaratadi.

Viloyatda yillik o`rtacha harorat +12 gradus, chekka janubiy qismida +15 gradusga yetadi. Bu ko`rsatkich Urganch shahrida +14 gradusni tashkil etadi.

Viloyatning janubiy hududlarida yanvarning o`rtacha harorati -3 gradus, qolgan qismlarida -4,-5 gradusga teng. Vohada eng past harorat -32,-33 gradusgacha

boradi. Iyulning o`rtacha harorati +28 gradus, Urganchda bu ko`rsatgich +28,5 gradusga teng. Viloyatda yillik sovuqsiz kunlar o`rtacha 200 kunni tashkil etadi.

Bu janubda 204 kun, shimolda 195 kunga teng.

1.2. Viloyatda qishloq xo`jaligini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi omillar.

Iqlimi: Xorazm viloyati zonal iqlimiy asoslarga ega, O`rta Osiyoning markaziy cho`l provinsiyasida joylashgan. O`rtacha yillik iqlim ko`rsatgichlari “Xiva” va “Urganch” meteostansiyalari ma`lumotlari bo`yicha 1.2.1- jadvalda keltirilgan. Viloyat iqlimi keskin quruq bo`lib qurg`oqchilligi bilan, yozning quruq va issiqligi qishning sovuqligi bilan, shuningdek haroratning katta miqdorda sutkali yillik tebranishi bilan ajralib turadi. Xorazm viloyati iqlimi va tabiati o`ziga xos xususiyatlarga ega. Uning okean va dengizlardan minglab kilometr uzoqlikda bo`lganligi uni tipik kontinental o`lkalar qatoriga kirishiga imkon yaratdi. Bu yerda yozning juda issiq, qishning sovuq kelishi, ob –havoning kun davomida keskin o`zgarib turishi, yog`ingarchilikning kamligi, havoning quruqligi, viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir. Iqlimning bunday hususiyatlari viloyat hududining geografik o`rniga, quyosh nurlarining tushish burchagi va yer yuzasining tuzilishiga bog`liq.

Viloyatda yil davomida quyoshli kunlar ko`p bo`lib, yozda quyosh ufqdan ancha baland ko`tariladi. Masalan: 22-iyunda Urganchda quyosh ufqdan

$(90-40+23.5) = 71.5^0$ ko`tariladi.

Yoz oylarida sutka davomida eng past harorat ko`pincha ertalab soat 4-5ga, juda yuqori harorat esa soat 14-16 oralig`iga to`g`ri keladi. 22-dekabrda esa quyoshning ufqdan balandligi $(90-40-23.5) = 25.5^0$ ga teng bo`ladi. Quyosh nur sohib turadigan davr, nur sochishi mumkin bo`lgan davrning 35-50 foizini, yozda esa 80-90 foizini tashkil qiladi. Qish oylarida sutkadagi havoning eng past harorati ertalab soat 6-7 larda kuzatilsa, eng yuqori harorat esa soat 14-15 larga to`g`ri keladi.

Xorazm viloyati yurtimizning cho`l zonasida joylashgan eng issiq hududlar safiga kiradi. Bu yerda havo namligi mamlakatimizda eng past hududlar qatoridan o`rin oladi. Masalan havoning mutloq namligi Xonqa tumanida 3.1 millibarga teng bo`lganligi kuzatilgan. Viloyat quyoshli kunlar eng ko`p bo`ladigan hududlardan

biridir. Bu yerda quyosh nur sochib turadigan davr Respublikaning boshqa o`lkalariga nisbatan ko`p. Masalan may oyidan oktyabr oyigacha, yani paxta va boshqa qishloq xo`jalik ekinlari pishib yetiladigan vaqtda bu davr viloyat hududining janubida (Hazarasp) 1800 soatga, Qohirada esa 1613 soatga teng. Viloyat hududida yozda quyoshning ufqdan balandligi va quyoshli kunlarning ko`p bo`lganligi sababli ham uning hududi quyosh radiatsiyasiga boy bo`lib, uning har bir kvadrat metruga 140 kkal issiqlik tushadi. Buning 20 kkaloriyasi iyul oyiga to`g`ri keladi.[24]

Yer yuzasi quyoshdan keladigan radiatsiyaning hammasini qabul qilmaydi. Uning 25-30 foizi yer yuzasidan qaytadi. Musbat haroratlar yig`indisi 4000-4400 ni tashkil qiladi. Yozda qishdagiga qaraganda 4-5 marta ko`proq issiqlik tushadi. Shuning uchun ham viloyatda yoz oylarida ob-havo kam o`zgaradi. Qishda esa quyosh radiatsiyasi susayadi va kirib kelgan har bir havo massasi, haroratni va umuman ob-havoni tez o`zgartira oladi. Qish oylarida ob-havo o`zgarishining boshqa sabablari ham bor. Noyabr oyining o`rtalaridan to mart oyigacha, yerning nur sochish yo`li bilan yo`qotadigan issiqligi unga quyoshdan keladigan issiqlikdan oshib ketadi. Bu ham qish oylarining bir muncha sovuq bo`lishiga ma`lum darajada sabab bo`ladi.

Viloyat iqlimining tarkib topishiga atmosfera sirkulatsiyasi, yani havo massalarining almashinib turishi ham alohida o`rin tutadi. Mamlakatimiz kabi viloyatda ham yer yuzasidan 2-3 kilometrdan 12 kilometrgacha bo`lgan balandlikda asosan

1.2.1- Jadval.

g`arbiy va janubiy havo massalari hukmronlik qiladi. Bunday oqimlar mavjudligini 5-7 metr balandlikdagi havo bosimi va havo oqimlarini ko`rsatuvchi ayerologik

Stansiya nomi	OYLAR												YIL davomida
	Oylar												Yil davomida
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Urganch													2952
	96	133	180	235	318	373	394	376	334	273	174	112	

kartalardan bilib olish mumkin.

Xorazm viloyatida o`rtacha yillik iqlim ko`rsatgichlari "Xiva" va "Urganch" meteostansiyalari ma`lumotlari bo`yicha jadvalda keltirilgan. Viloyat iqlimi qurg`oqchilligi bilan ajralib turadi.

O`rtacha yillik yog`in miqdori juda oz, ya`ni 94-100 mmni tashkil etadi. Yog`inning asosiy qismi qish va bahor davrlariga to`g`ri keladi.[29]

Xorazm viloyati o`rtacha shamol faoliyati zonasida joylashgan. Yillik shamolning yo`nalishlari bo`yicha shimoli-sharqiy yo`nalishdagi shamollar ko`proq kuzatiladi . O`rtacha bir yilda 6 kecha kunduz (sutka) changli bo`ronlar bo`ladi .Shamolning o`rtacha tezligi 3,5 m\sek ga yetadi. Yozning yuqori harorati, atmosfera yog`inlarining kamligi, yoz kunlarida havo nisbiy namligining pastligi (37-40 foiz). va tez-tez shamollarning bo`lib turishi tuproqdagi namni ko`p bug`latadi (300-320 kun yiliga) natijada tushayotgan yog`inga nisbatan 15-18 marta ortiq nam havoga ko`tarilib ketadi. Bu qishloq xo`jaligi ekinlarini sug`orishga ehtiyojini yanada oshiradi va tuproqning jadal sho`rlanishiga olib keladi.

1.3 Agroiqlimiy resurslarning tuproqning shakllanishidagi o`rni.

Xorazm viloyat yer resurslari bosh boshqarmasi ma`lumotlariga ko`ra, 2004-yilda viloyat yer manbalari fondi 681505 gektarni tashkil etgan bo`lib, shundan 76360 gektari ma`muriy chegaralardan tashqarida (Qoraqolpog`iston Respublikasining Qiziljar massivi) joylashgan.

Qiziljar massivida qishloq xo`jaligi bilan band bo`lgan jami yerlar 68395 ga ni tashkil qiladi.Shundan ekin yerlari 5435 ga, bog`zorlar 22ga, bo`z yerlar 818 ga, pichanzorlar 9427 ga, yaylovlar 52693 ga yer maydoniga ega. Xorazm viloyatining o`z yer teretoriyasida yer manbalari fondi 605145 gektarga teng bo`lib, shundan ekin yerlari 203398 ga, ko`p yillik daraxtlar 13337 ga, bo`z yerlar 4251 ga, pichanzorlar 7 ga, yaylovlar 110016 ga dan iborat.

Viloyat aholisining tomorqalari egallagan umumiy yer maydoni 47611ga ni tashkil qilib, shundan ekin yeri 34172ga bog` va mevali daraxtzorlar 4943 ga,imoratlar bilan band bo`lgan maydon 8496 ga teng. Mintaqada foydalanilmaydigan yerlar jami 166721 ga ni egallagan. Shunday qilib, Xorazm viloyati bo`yicha qishloq xo`jaligi bilan band

bo`lgan yerlar 399404 ga teng bo`lib undan ekin yerlari 271793 ga, ko`p yillik daraxtlar 13359 ga, bo`z yerlar 5065 ga, pichanzorlar 9434 ga, yaylovlar 162709 ga maydonga teng. www.unisef.int

Aholining tomorqa yerlari 47656 ga dan iborat. Shu jumladan ekin yerlari 34205 ga, bog` va mevali daraxtzorlar 4943 ga.

Xorazm viloyatida bog` va sabzavotchilik uyushmalari 91 ga, jami o`rmonzorlar 58371 ga hududni egallagan. Jami foydalanilmaydigan yerlar 174583 ga ni tashkil qiladi. Viloyat hududining kichik bo`lishiga qaramasdan bu yerda xilma-xil tuproqlar tarqalgan. Tuproq hosil bo`lish jarayoni hozir ham davom etmoqda. Tuproq ham o`simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Viloyatdagi mavjud tuproqlar kontinental cho`l iqlimi sharoitida shakllangan. Viloyat tuproqlarining hosil bo`lishida yillik harorat amplitudasi, yog`in miqdori, yer osti suvlarining ham ta`siri katta, shuningdek insonning xo`jalik faoliyat ham tuproq hosil bo`lishidagi omillardan hisoblanadi. Lekin bu omillar ichida iqlimning ro`li nihoyatda muhimdir.

Viloyatda yog`in miqdorining nihoyatda kamligi yog`inga nisbatan bug`lanishning bir necha marta ko`pligi tuproq yuzasida juda ko`p miqdorda tuzlar to`planishiga olib keladi.[30]

Viloyatning geografik joylashuviga ko`ra bu yerga mos keladigan zonal tuproq bo`z tuproqdir. Xorazm viloyati sug`oriladigan tuproqlarining hozirgi meliorativ holati va bu holatni belgilovchi omillar yer osti suvlarining joylashish chuqurligi, iqlim, harorat amplitudasi (yillik), minerallasish darajasi va kimyoviy tarkibi, zaxkash suvlarning miqdoriy va sifat ko`rsatkichlari, tuproqdagi yalpi tuzlar miqdori va ularning turli qatlamdagi zahiralari hamda kollektor-zovur tarmoqlarining bugungi holatlari bilan belgilanadi.

Viloyatda bugungi kunda iqlim, suvlar, shamol ta`sirida yerlarning tuz miqdori ko`paymoqda. Viloyat hududida hozirda jami sho`rlangan yerlar 100 foizni tashkil qilsa, shundan o`rtacha va kuchli sho`rlangan yerlar 56.1 foizni tashkil etadi.

Umuman viloyatda agroiklim va sug`orish jarayonida tuproqning zararli tuzlardan mo`tadil yuvilish tartiboti qo`llanilayotganligi, tuz balansidagi ijobiy holat,

gektaridan 1500-2000 tonna tuz chiqib ketishga erishilyotganligiga qaramasdan ikkilamchi sho`rlanish jarayoni faollashib ekinlar hosildorligining pasayishi kuzatilmoqda. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida ko'pgina agrotexnika ishlarini amalga oshirib borib qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish lozim.

Xorazm viloyati tuproqlari agroiqlim resurslari natijasida ko'p yillar davomida tuproqlar holati o'zgarib bugungi ko'rinishga keldi.

II-bob. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida agroiqlim resurslaridan samarali foydalanish.

2.1 Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida agroiqlim resurslaridan samarali foydalanish.

Xorazm viloyati haqida shuni aytish mumkinki, viloyatda yillik issiq kunlarning soni, havo harorati, namligi, havo haroratlar yig`indisi, shamol kuchi va yo`nalishi va boshqa tabiiy jarayonlar madaniy o`simliklarning o`sishi rivojlanishi uchun, shuningdek qishloq xo`jaligi ishlarini o`z vaqtida olib borish uchun o`ziga xos va mos imkoniyatlarga ega.


Xorazm viloyati mo`tadil iqlim mintaqasining namlik yetishmaydigan materik cho`l iqlimi zonasida joylashgan.

Viloyatda yillik o`rtacha yog`in miqdori 79-110 mm gacha o`zgaradi va uning 6 foizi (5mm) yoz, 14 foizi (11mm) kuz, 43 foizi (34mm) bahor va 37 foizi (29mm) qish oylariga to`g`ri keladi. Havoning nisbiy namligi kuz va qish fasllarida 42-85foizni, maydan-sentyabrgacha 35-53 foizni tashkil etadi.

Havo harorati kuchli qiziganda 5sm balandda nisbiy namlik miqdori taqir yerlarda 13 foizga, beda dalalari ustida esa 55 foizga teng bo`ladi. Agar havo harorati beda dalalari ustida tuproqning 5 smli yuza qismida 31°C ga teng bo`lsa, shu balandlikdagi o`simliksiz yerlarda 41°C gacha ko`tariladi.

Tuproq yuzasining harorati yoz oylarida o`rtacha 37°C gacha, eng yuqori harorat tuproqning 20smli qatlamida $+58$ $+60^{\circ}\text{C}$ ga yetadi.

Qish oyida tuproq yuzasining o`rtacha harorati -36°C , eng past harorat esa -10 - 11°C gacha pasayib ketadi.



2.1.1 - rasm.a).Xorazm viloyatida o`rtacha yog`in miqdori., b) Viloyatda tuproq haroratining o`zgarish grafigi, v) viloyatda havo haroratining o`zgarishi grafigi, g) viloyatda shamollar faoliyati grafigi.(Urganch va Xiva meteorologik stansiyalari ma`lumotlari bo`yicha).

Yoz oylarida qum yuzasining harorati $+60^{\circ}\text{C}$ dan oshadi. Viloyat hududida 2004-2007-yillarda suv yuzasidan bug`lanish 1881,07-1943,84 mm/yilni, yer osti suvlarining 1-3,5 metrli qatlamida yillik bug`lanish miqdori 50-80mm\yilni tashkil etgan (Xudoyberganova,2007yil)

Xorazm viloyatida yillik radiatsiya yig`indisi $140 \text{ kkal}/\text{sm}^2$ ga, radiatsiya balansi esa $40 \text{ kkal}/\text{sm}^2$ ga teng bo`ladi. Namlik indeksi yillik yog`ingarchilik miqdori va radiatsiya balansiga bog`liq holda 3 ni tashkil qiladi. Bu esa viloyat hududida katta miqdordagi namlikning yetishmasligini ko`rsatadi.

Havo haroratining mavsumiy va kunlik o`zgarishi ancha keskindir.

Bazi yillarda iyul oyining eng yuqori havo harorati ($+44^{\circ}\text{C}$) bilan yanvar oyining eng past havo harorati (-43°C , Sibir antisikloni kirib kelganda) amplitudasi 876 ni tashkil qiladi. 2008-2009 yillarda iyul oyining o`rtacha harorati $+24^{\circ}$ $+28^{\circ}$ C ni, eng yuqori harorat $+35^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan bo`lsa, yanvar oyining o`rtacha harorati -4 $-7,6^{\circ}\text{C}$

ni, eng past havo harorati -14° Cga yetgan. Viloyatda havo haroratining kunlik o'zgarishi esa 10° - 12° Cga teng.

Yil davomida quyosh nur sochib turadigan vaqt 2900-2950 soatdan ortiq bo'lib, hududda yillik sovuqsiz kunlar o'rtacha 200, janubda 204, shimoliy qismlarida esa 195 kuni tashkil etadi.

Orol dengizining qurishi natijasida birinchi sovuq tushushi 1960 yilga nisbatan 10-12 kunga qisqargan (ZEF 2005). Eng kech kuzgi sovuq urishi 1974-yil 10-oktyabrda va eng erta 1973-yil 27-sentyabrda kuzatilgan.

Bahorgi sovuq tushishi esa eng erta 1974 yil 1-martda, eng kech 1965 yil 25-aprelda kuzatilgan. (Eshchanov, 2008).

Viloyat iqlimida beqarorlik yaqqol ko'zga tashlanadi va qor qoplami efemer ahamiyat kasb etadi. Shamollar asosiy shimoliy, shimoli-sharqiy yo'nalishda esadi.

Shamolning o'rtacha yillik tezligi 3-5 m/sek.ni, shamolning eng yuqori tezligi 8-9 m/sek.ni va eng kam tezligi esa 0.5-1 m/sek.ni tashkil qiladi. Bu vaqtda havo harorati $+40^{\circ}$ C gacha ko'tariladi, nisbiy namlik esa 5-10 foizga tushadi. (Baratov, 1996). Eng kuchli shamollar bahor oylariga va kuchsiz shamollar yoz oylariga to'g'ri keladi. Bahor oylarida shamollar tezligining oshishi mevali daraxtlarning gullarini to'kilishiga sababchi bo'lmoqda. [32]

Yoz oylarida esuvchi kuchsiz shamollar natijasida ayrim yillari (2002 yil) garmsel xavfi kuzatiladi. Bu vaqtda shamolning tezligi 5.6 m/sek.ga yetib cho'l zonasida qizigan chang to'zonli havo massalari kirib keladi va havo harorati 36° C gacha ko'tariladi hamda chang to'zon ko'tarilib havo qizg'ish tus oladi. Bir yil davomida hududda sodir bo'luvchi, bu kabi to'fonlarning soni 25 taga yetadi. Bu to'fonlarning 60 foizi shimoli-g'arbdan esadigan shamollar natijasida yuzaga kelib, Orol dengizi qurigan qismlaridan ko'p miqdordagi xloridni va sulfatli tuzlar hamda og'ir metalli changlarni uchirib keladi. Ularning ayrimlari gektariga 20-30 m³ chang to'shamalarini (taxminan 500 kg/ga) keltirib yotqizadi. Umuman olganda, viloyat hududida eng kuchli shamollarning tezligi 2001-2002 yillarda 9 m/sek.ga yetgan bo'lsa, 2003-2004 yillarda bu ko'rsatgich pasayib 7.8 m/sek.ni tashkil etadi.

Viloyatda qishloq xo'jalik ekinlaridan ayniqsa, g'ozaning ertapishar navlarini, tarkibida qand moddasi bo'lgan meva va uzumlarni yetishtirish imkonini beradi.

Bu yerda poliz, sabzovot va donli ekinlardan yuqori, shuningdek, chorvachilikni hududiy tashkil etish va rivojlantirishning asosi bo'lgan ozuqa ekinlaridan biri bo'lgan bedadan 3-4 marta hosil olinadi.

Yillik sovuq kunlar 80-84 kunga borib yanvarning o'rtacha harorati $-4.9-5.1^{\circ}\text{C}$ ga teng. Baza shimoldan va shimoli sharqdan kelgan sovuq havo massasi turib qolib, eng past harorati $-25 -32^{\circ}\text{C}$ gacha pasaytirib yuboradi.

Viloyat meteorologik stansiyalarining o'rtacha ko'p yillik ko'rsatgichlariga qaraganda qish quruq va qattiq sovuqlar, 1930 yil dekabrda, 1950-1951, 1968-1969, 1993-1994, 2007-2008 yillarda bo'lib tuproqning ustki qatlami 30-75 sm gacha muzlagan. Qish 1949-1970-yillar oralig'ida 4-6 oy atrofida bo'lgan, tuproqning ustki qismi muzlashi 20-60sm gacha o'zgarib turadi.[29]

Ma'lumotlarga ko'ra qish oylarida (noyabr oxiri,dekabr,yanvar,fevral va mart oyining birinchi yarmida)sovuq bo'lishiga va tuproq tuzilishiga qarab 27 kun atrofida dala ishlarini bajarish imkoni aniqlangan.Ba'zi yillarda qish iliq kelib o'simliklarni yil bo'yi o'sishi ham davom etgan. Bunday qishni L.N.Babushkin "Vegetatsiya " li qish deb atagan. Vegetatsiyali qish Termizda 94.0 foiz, Qarshida 51.0 foiz, Toshkentda 46.0 foiz,Urganchda 4.0 foiz,Qo'ng'irotda 0 foizni tashkil etadi.

Yilning mart oyi oxirlaridan boshlanib,o'rtacha sutkalik harorat 50°C dan oshadi Xorazm vohasida bahor Surxon –Sherobod vodiysidan 20-25 kun,Buxoro - Qoraqum vohasidan 10-15 kun keyin boshlanadi,ba'zan o'sha vaqtlarda sovuq bo'lib,tuproqning ustki qatlamining muzlashi kuzatilgan. Endigina unib chiqqan yosh o'simliklarni sovuq shikaslantirgan,oqibatda ekin ko'chatlari siyraklashgan va nimjonlashgan.Ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra,vohada mart oyining 10 kun atrofida tuproqni ekishga tayyorlash ishlarini bajarish mumkin.

Bahor voha uchun sernam fasl hisoblanadi, chunki yillik yog'inning 40-43 foizi bahorga to'g'ri keladi.Ba'zida bahor kech kelish holatlari ham bo'lgan.Masalan 2003-yil may oyida 74 mm yog'in yog'ib ekinlarni qaytadan ekishga to'g'ri kelgan.

Yog`inlar mavsumining bahorga to`g`ri kelishi ayrim hollarda esa jala tarzida yog`ishi tufayli qishloq xo`jaligi uchun katta zarar keltiradi, ayniqsa g`o`za uchun havfli bo`lib, uning unib chiqishiga imkon bermasdan ko`pgina maydonlardagi g`o`zani qaytadan ekilishiga sabab bo`ladi. Ahyon-ahyonda yog`adigan do`l esa unib chiqqan nihollarni nobud qilishi mumkin. Bu esa qishloq xo`jaligiga ma`lum darajada zarar keltiradi.

April oyining oxiri va may oyida g`o`zani unib chiqqandan so`ng yog`adigan yog`inlar qatqaloq hosil qilib, g`o`zani ildizini chirishi kasalligiga olib keladi va bu o`z navbatida tuproqqa ishlov berish va boshqa agrotexnik tadbirlarni o`tkazilishini talab etadi. Biroq, bu davrda yog`inlar bug`doy, piyoz kabi o`simliklarning va tut daraxtlarining yaxshi rivojlanishiga hamda yaylovlarda chorvachilik uchun o`tlarni o`sishiga imkoniyatlar yaratadi.

Hududning yoz fasli kunduzi havo haroratining yuqoriligi (43^0-45^0) tuproq ustki qatlarning harorati 55^0 dan 68^0 gacha ko`tarilishi bilan harakterlanadi. Keyingi o`n yilliklar mobaynida Orol bo`yi yuqori hududlari Xorazm vohasida yuqori haroratli kunlar soni (40^0 yuqorisi) 2 marta, O`zbekistonning boshqa hududlarida esa 1.5 marta oshgan. (CHUB, 2004.)

Vohada yoz quruq va issiq bo`adi, quyoshli davr 2900-2950 soatdan ziyod bo`lib, Xorazm viloyati quyoshli kunlar ko`p bo`ladigan o`lkalardan sanaladi. Quyosh radiatsiyasi iqlimning tarkib topishida muhim ro`l o`ynaydi va shu bilan birga viloyatning eng yirik tabiiy boyligi hisoblanadi va shu bois bu yerda dehqonchilikning barcha sohalari (paxtachilik, bog`dorchilik, uzumchilik, sholichilikning) rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi.

Biroq yozda haroratning juda yuqorigi issiqsevar qishloq xo`jalik ekinlari uchun foydali bo`lsada, uning salbiy ta`sirlari ham mavjud. Yozda jazirama issiqlik oqibatida va yog`in yog`masligi tufayli qurg`oqchilik bo`lib, o`simliklar sarg`ayib, qovjiratib yuboradi. Issiq shamolning esishi oqibatida chang ko`tarilib, havo xiralashib qoladi. Bunday chang to`zonli kunlar 3-4 kun davomida bo`lib o`tadi. Mutaxasislarning fikricha, havo harorati 36^0-37^0 dan oshganda g`o`za hujayralari haddan tashqari qizib, uning oziqlanish rejimi buzilishi mumkin. Natijada g`o`za hosil nishonalarini

tashlab yuboradi, bu esa bo`lajak hosilning sifati va miqdoriga o`z ta`sirini ko`rsatmay qolmaydi. Ammo bu davrda ekinlar o`z vaqtida sug`orilib turilsa, ularga hech qanday zarar yetmaydi, aksincha, paxta tolasining sifati va poliz ekinlarining hosilasidagi qand, kraxmal miqdori oshadi. 2000, 2008, 2010 yillari Amudaryo suvi ancha kam bo`lishi oqibatida, shu yillarda yozda havo harorati ham me`yordan oshib ba`zi bir ekin turlarining nobud bo`lishiga olib keldi.

Kuzda o`rtacha havo harorati $+5^{\circ}$ dan $+20^{\circ}$ gacha bo`ladi. Vohada kuz sentyabr oyidan boshlanadi. Oktyabr oyidan boshlab sovuq havo oqimining kirib kelishi natijasida harorat pasayib ba`zan 0°C ga tushib qolishi ham mumkin. Kuzning ikkinchi yarmidan boshlab, shimoli g`arbdan va shimoldan kirib kelgan sovuq qutbiy kontinental havo ob-havoni o`zgartiradi; harorat pasayadi, yog`in yog`ib, kuchli shamollar vujudga keladi va so`ngra kun ochilib, yana harorat goh ko`tarilib, goh pasayib yuradi. O`rtacha havo harorati 11° - 13°C noyabrda 3 - 5°C bo`ladi, yog`in miqdori (Xiva, Urganch meteostansiyalari ko`p yillik malumotlar bo`yicha, 1990-2010) 16 mm atrofida bo`lib, yillik yog`inning 20 foizini tashkil qiladi. O`lka hududida eng yaxshi davr kuz faslining birinchi yarmi, ya`ni sentyabr oyi hisoblanadi. Chunki bu davrda havo issiq, quruq va ochiq bo`lib, daraxtlarning barglari ham sarg`aymaydi, meva uzum va boshqa poliz ekinlari pishib yetiladi. Ko`p yillik meteorologik ma`lumotlarga ko`ra kuzgi o`rtacha sovuq tushishi payti 10-15 oktyabrlarga to`g`ri keladi. Ba`zi yillari u sentyabrning oxiriga to`g`ri kelgan. (Masalan 1974-yil 27-sentyabr). Oqibatda ekinlar shikastlanib, hosil to`liq yetilmay qolgan. [32]

Shuning uchun ham Xorazm sharoitiga to`g`ri keladigan ertapishar, serhosil o`simlik navlar ekish zarur. 2002-2008 yillarda sovuq tushishi noyabr oyining birinchi o`n kunligiga to`g`ri kelib, bu barcha ekinlarni to`liq pishib yetilishiga imkon yaratadi.

Vohada yog`in sochin Qoraqum va Qizilqumdagi bo`lgani kabi faqat qish va bahorda tushadi. Yog`inning eng kam miqdori yiliga 40mm dan 100mm gacha ba`zi yillari (1983-2003) yog`ingarchilik ko`p bo`lib, 160-180mm gacha goh kam ya`ni 40-50 mm atrofida bo`ladi. O`rtacha yog`in 85-90 mm atrofida.


Yomg`irli kunlar yil davomida 35-40 kun atrofida bo`lib, viloyat Respublikaning eng kam yog`in yog`adigan hududlaridan biri hisoblanadi. Shunga bog`liq holda qishloq

xo`jaligi ekinlari yetarli namlikning ayrim qismini yog`inlardan qondiradi.Viloyatdagi bug`lanish yog`in miqdoridan 18-19 marta yuqoridir. Ko`p yillik ma`lumotlarga qaraganda o`rtacha yillik bug`lanish 1380-1400 mm ga teng.(Ayrim yillari 2000 mm gacha oshishi kuzatilgan.), bu esa sun`iy sug`orish tarmoqlari va kollektorlar ish maromini boshqarish evaziga ekin maydonlari tuproqlarning namlik miqdorini saqlab turilishi talab etiladi.

O`rganilayotgan hududdagi yomg`irlar miqdorining kamligi va ularning oz-ozdan bir necha marotaba takrorlanib yog`ishi,tuproqning chuqur qatlamlariga yetib bormasdan sizot suvlari zahirasining to`ldirmasligiga olib keladi.Havoning o`rtacha nisbiy namligi 30 foizdan oshmaydi,uning quruq bo`lishi va quyoshning intensiv radiatsiyasi natijasida bug`lanish yuqori bo`ladi.

Viloyat hududida yil davomida havo haroratining turlicha bo`lishi bu yerdagi shamolning yo`nalishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi.Bu hududda shimoliy va shimoli-sharqiy shamollar ustunlik qiladi.Shamollarning o`rtacha tezligi 3-4 m/s,ba`zida changli bo`ronlar vujudga keladi va shamolning tezligi 20-25 m/sga yetib,dehqonchilikka katta zarar yetkazishi mumkin.Viloyatda shamolli kunlar yilning barcha fasllarida sodir bo`lib turadi. Shamolli kunlarning umumiy soni 300-320 kun atrofida bo`ladi.Faol shamollarning bahorda uzoq davom etishi pillachilikka,uning ozuqa bazasi bo`lgan tut daraxtlariga katta zarar yetkazadi.Shu bois pilla hosilining mo`l ko`l bo`lishi asosan shamollarning aprel va may oylaridagi tezligi va davom etish vaqtiga bog`liqdir.

2.1.2-rasm.



Avezov S. ma`lumoti asosida ishlangan.

Xorazm viloyati tuproqlarining mexanik tarkibi kartasiga nazar tashlaydigan bo'lsak vohaning arid, quruq va kontinental iqlimga ega bo'lganligi tufayli bu yerda asosan yengil soz, og'ir qumoq, o'рта qumoq, yengil qumoq tuproqlari tarqalgan. Bu tuproqlar vujudga kelishida viloyat iqlimi muhim ro'l o'ynaydi. Sababi viloyatda yillik bug'lanish yuqori hamda yog'in kam, bu tuproq vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2 Viloyatda paxtachilik va don xo`jaligini rivojlantirishda agroiqlimiy resurslarning ahamiyati.

Xorazm viloyati iqlimi qurg`oqchil kontinental tipga kiradi va iyulda o`rtacha havo harorati shimolda 26° C dan janubda 28° C gacha o`zgaradi. Eng yuqori ko`rsatgich 43° - 44° C ga yetadi, yog`inlar esa asosan qish-bahor faslida tushadi. Shuning bilan bir qatorda, o`simliklarning vegetatsion davrida quyosh radiatsiyasi va issiqlikning yuqoriligidan agroiqlim va yer resurslaridan foydalanishni cheklovchi bosh omil suvning yetishmasligi hisoblanadi. Bu yerda tabiiy sharoitlar shakllanishining muvozanati muammosi haqida son sanoqsiz asarlar yozilgan va yuzaga kelgan ekologik sharoitlarni yumshatish uchun juda muhim rejalar ishlab chiqilmoqda.

O`zbekistonning barcha viloyatlari kabi Xorazm viloyatida ham paxta yetishtirish uchun yetarli agroiqlimiy sharoitlar va resurslar mavjud, uning iqtisodiy sektorini rivojlanishida qishloq xo`jaligi muhim ro`l o`ynaydi.


Paxta muhim texnika ekini bo`lib, viloyat xalq xo`jaligining eng muhim ixtisoslashgan tarmog`i hisoblanadi. Paxta, to`qimachilik, oziq-ovqat, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarining muhim xom-ashyosi hisoblanadi. Paxtachilikning pirovard asosiy mahsuloti paxta tolasi va paxta yog`idir. 1 tonna paxta xom ashyosidan o`rtacha 320-350 kg tola (3500 metr kvadrat gazlama) 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi.

Viloyat xalq xo`jaligining 70 foizdan ko`proq qismi texnologik jihatdan paxtachilik bilan bog`liq bo`lib, barcha ekin maydonlarining 41-42 foizni tashkil etadi. Viloyat nafaqat respublikada, balki butun dunyoda eng shimoliy zonalarda joylashgan paxtachilikka ega.

Ma`lumki, paxta issiqsevar o`simlik bo`lib, yorug`likni juda sevadi.

Tuproq issiqligi 13° - 16° bo`lganda chigit unib chiqadi va 0° darajada chigit nobud bo`lishi mumkin. G`o`zaning yaxshi o`sishi vegetatsiya davridagi haroratlar yig`indisi 3600 dan 5500 gacha bo`lishi kerak. Paxta suv ko`p talab ekin bo`lib, o`rtacha hisobda 1 gektar g`o`zani sug`orish uchun 4500-5500 metr kub suv kerak bo`ladi. G`o`za xilma-xil tuproqli yerlarda gilli, qumoq bo`z, o`tloqi va boshqa xil tuproqlarda ham bemalol o`saveradi.

2.2.3-rasm, Xorazm viloyatidagi namgarchilik davri.(iqlim grafikasi Boltir metodi bo'yicha Urganch,Xiva, va Tuyamo`yin meteorologik stansiyalari. (Manba: ЮНЕСКО ZEF /Xorazm dasturi ma`lumotlar)



Viloyat paxtachiligi eng shimoliy hududda joylashgan hududda bo'lishiga qaramay hosildorlik ayrim joylarda 40-45 sentnergacha boradi.

Ammo keyingi yillarda hosildorlik darajasi suv tanqisligi oqibatida keskin pasayib ketdi.1997-yilda har gektar yerdan 32.5 sentner paxta hosili olingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2000-yilda 21.8 sentnerni,2011 yilda bu ko'rsatgich yana ham pasayib 18.4 sentnerni tashkil etdi.

Paxta maydonlari 2009 yilda 2000 yilga nisbatan 14256 gektar maydonga kam ekilgan.Ammo yalpi hosildorlik keskin kamayganligini kuzatish mumkin.Bu eng avvalo Orol muammosini, yerlarning sho'rlanish darajasining oshishi va ularning meliorativ holatining buzilishi, suv tanqisligi, oqibatida hamda mahalliy iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelmoqda.

2004-2009 yillarda viloyatda g`o`za maydonlari, yildan yilga qisqartirildi, sholi, g`alla, sabzavot, poliz va boshqa ekinlar maydonlari hamda tomorqa, fermer xo`jaliklari yerlari kengaytirildi. Asosiy e`tibor paxtachilikni intensiv omillarni kuchaytirishga qaratildi. Shuning oqibatida paxta yetishtirishni ko`paytirish, hosildorlik va tola chiqishini ko`paytirish yo`nalishida amalga oshirishga e`tibor kuchaydi.

O`zbekistonning barcha viloyatlari kabi Xorazmda ham paxta yetishtirish uchun yetarli darajada agroiklimiy sharoitlar va resurslar mavjud.

Uning iqtisodiy sektorini rivojlanishida qishloq xo`jaligi muhim ro`l o`ynaydi. Xorazm viloyatida agroiklimiy sharoitlar va resurslari g`o`zaning tezpishar navlarini yetishtirish uchun samarali havo haroratining yig`indisi bilan ta`minlangan. Joriy yilda g`o`zaning C-4727 navi ekilgan maydoni – 39 foiz, Xonqa – C5018 – 7 foiz, Yangibozor – 20 foiz, Gurlan esa 27 foiz va istiqboldagi navlar 7 foizni tashkil etdi. Bu g`o`zalar navlari o`rtasida ham xo`jalik ham texnologik ko`rsatgichlar bo`yicha aloxida tafovutlar mavjuddir.

Turli g`o`za navlaridan paxta tolasining chiqishi to`grisidagi malumot amaliyot uchun muhimdir.

2.2.1- jadval.Xorazm viloyati agroiklimiy sharoitlari va resurslari.

Hududlarni ob- havo,agrometeorologikva agroiklimiy xususiyatlariga mosmalumotlar		Meteorologik stansiyalar nomi		
		Urganch	Pitnak	Xiva
Bahorda oxirgi qora sovuq	Havo haroratining 10 ⁰ Cdan ko`tarilishi	06.04	04.04	04.04
	Havo haroratining 15 ⁰ Cdan ko`tarilishi	24.04	15.04	14.04
	Erta qora sovuqning sanasi yili	13.03.1981	18.03.2004	
	Qora sovuqni	02.04	04.04	29.03

	o`rtacha sanasi				
	Kech kuzatilgan qora sovuqning sanasi yili	93	09.05.19	30.04.1989	
Kuzda birinchi qora sovuq	Havo haroratining 15 ⁰ Cdan pasayishi		02.10	01.10	03.01
	Havo haroratining 10 ⁰ Cdan pasayishi		22.10	24.10	22.10
	Erta qora sovuqning sanasi, yili	93	03.09.19	23.09.1993	
	Qora sovuqni o`rtach sanasi yili	97	06.10.19	09.10	
	Kech kuzatilgan qora sovuqning sanasi yili		01.11	01.11.1984.	1997
	Tuproqdaqorasovuqsizdavr, kunlarsoni		180	183	184
Havodaqorasovuqsizdavr, kunlarsoni		197	192	194	
21-martdan 31 oktyabrgacha SHHY		2402	2423	2426	
1-Apreldan 31-oktyabrgacha SHHY		2392	2413	2421	
11-Apreldan 31-oktyabrgacha SHHY		2373	2393	2395	
21-Apreldan 31-oktyabrgacha SHHY		2327	2346	2351	

1-maydan 31-oktyabrgacha SHHY	2262	2280	2281
1-maydan 31-oktyabrgacha SHHY	2168	2185	2488

Bugungi kunga kelib O`zbekistonlik seleksionerlar paxtaning 162 navini yaratdi, ularning ertapisharlighi, hosildorligining yuqoriligi tolasining tozaligi va uzunligi, zararkunandalarga chidamliligi hamda mamlakatimizning turli hududlari iqlim sharoitiga mosligi bilan ajralib turadigan 45 tasi davlat registriga kiritilgan va yetishtirish uchun tavsiya etilgan. Bugungi kunda dalalarimizda yetishtirilgan hosilning 83 foizni “oliy” va “yaxshi” navli paxta tolasini tashkil etadi.

O`zbekiston paxta xom –ashyosini yetishtirishda Xorazm viloyati o`rtacha 5 yildagi (2007-2011 yy) ulushi bo`yicha paxta maydoni 6.1 foiz yani paxta xom ashyosi -5.1 foizni tashkil qiladi.

Ma`lumki, MDH davlatlarida paxtachilik bo`yicha yetishtirilgan paxta xom ashyosi miqdori bilan yetakchi xorijiy davlatlarda esa paxtaning tolasini bilan baxolanadi. Shuning bilan bir qatorda dunyo bozorida tolaning mikroneyr ko`rsatgichining asosiy diapozoni 3,5-4,5 chegarasida bo`lishi lozim. Ushbu ko`rsatgich 3.0 dan yuqori va 3,5 dan past bo`lgan holda tolaning narxi tushib ketadi.

Paxta xom-ashyosi hosildorligiga oid ma`lumotlar asosida paxta tolasini miqdorini hisoblab chiqish usuli mavjud. Alohida olingan g`o`za navlarining tola qilish xususiyati esa bir-biridan farqlanadi va muayyan nav uchun barqaror. Ma`muriy hududlar bo`yicha turli maydonlarga turli paxta navlari ekiladi. Har bir viloyatda 1991-2010 yillar davrida ekin maydonlariga 2 dan 4 gacha va undan ko`p g`o`za navlari ekilishi kuzatilgan.

Xorazm viloyatida hosildorlikning natijalariga nazar tashlasak ,mustaqillikning birinchi 10 yilligida pastga yo`nalgan bo`lsa, ikkinchi 10 yillikda hosildorlikni barqaror ko`tarilishi kuzatilgan. Bu ikkala o`nlikning oralig`idagi yillarda hosilning past bo`lishi shu yillarda Respublikamiz bo`yicha suv tanqisligi yillariga to`g`ri keladi. Lekin trend chizig`idan hosildorlikning chetlanishi ob-havo, agrometeorologik va agroekologik sharoitlarga bog`liqligi shubhasizdir.

Tolaning sifati juda murakkab belgi, u juda ko'p omillar ta'sirida o'zgaruvchanlik hususiyatiga ega va Xorazm viloyatida yetishtirilgan paxta tolasining sifat jihatlari quyidagi ko'rsatgichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Mikroneyr (Mic)
2. Solishtirma uzilish kuchi;
3. Yuqori o'rtacha uzunlik, mm yoki dyum (Len);
4. Uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi, foiz (Unf)
5. Kalta tolalar indeksi, foiz (Sfi);
6. Uzilishdagi uzayishi, foiz (Elg);
7. Ifloslanish koeffitsienti (T);
8. Iflos aralashmalar soni (Cnt);
9. Iflos aralashmalar maydoni, foiz (Areal);
10. Nav rangi bo'yicha IR va +bga qarab aniqlanadi (Iccr);
11. Nur qaytarish koeffitsienti foiz (Rd);
12. Sarg'ishlilik darajasi (+b).

Xorazm viloyatida paxta tolasini sertifikatlash 'sifat' markazi ma'lumotlariga nazar tashlasak, yangi navlar joriy qilingandan keyin tolaning bir xilligi (tekisligi) 0,26 foizga, 82,93 dan 83,19 foizgacha, oqligi 0,32 foizga, 79,72 foizdan 79,72 foizgacha, shu davrda tolaning sariqligi 0,32 foizga, 8,94 dan 8,62 foizga kamaygan. Sotuvga qo'yilgan navlarning mikroneyr ko'rsatgichi 4,2-4,6 gacha bo'lgan, tolaning o'rtacha uzunligi 0,5 mmga, 32,7 mmdan 33,2 mmgacha o'sgan.

Bundan shuni qayd qilish mumkinki, agrometeorologik kuzatish, agroiqlim ma'lumotlaridan to'g'ri foydalanish lozim.

Viloyat dehqonchiligida don yetishtirish ham muhim o'rin tutadi. Xorazm viloyati aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash ko'p jihatdan don yetishtirish bilan bog'liq. Viloyatda don uchun bug'doy, sholi, arpa, makkajo'xori, oq jo'xori, dukkakli don ekinlari- mosh, loviya, moyli don ekinlaridan kungaboqar ko'p ekiladi. Dukkakli don ekinlarining ekin maydonlari tarkibidagi hissasi juda oz bo'lib, jami bir necha yuz gektarni tashkil etadi xalos.

Viloyatda g`allachilik dehqonchilikning qadimiy tarmoqlaridan biri sanaladi. Qadimda mahalliy sharoitga mos bo`lgan qizil bug`doy, arpaning navlari ekilgan. Bu ekinlarning o`shida bevosita Xorazm viloyati iqlimining o`ziga xos xususiyatlari muhim ro`l o`ynaydi. 1990 yillarga qadar dehqonchilikda g`alla ekinlari va dukkakli don ekinlari yetishtirilmagan. Bu ekinlar lalmikor yerlarda yetishtirilgan.

1993-1994 yillarda g`allachilikni ustuvor suratlarda rivojlantirish bo`yicha katta amaliy ishlar bajarildi. Shu jumladan viloyatimizda ham paxta yakkaxonligini bartaraf etish va ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish yo`lidan borildi. 1999-yilga kelib g`alla mahsulotlari 163413 tonnaga yetdi. 2012-yilda esa bu ko`rsatkich 182516 tonnani tashkil qildi. Viloyatda g`allachilikni rivojlantirishda agroiqlimiy resurslarning ro`li nihoyatda muhimdir. Qulay iqlim sharoiti tufayli bu yerda bug`doyning ertapishar va kechpishar navlarini yetishtirish uchun zarur miqdordagi haroratlar yig`indisi mavjud.

Iqlim sharoiti tufayli g`alla ekinlari har xil omillar o`simliklarning o`shiga jiddiy ta`sir etishi mumkin. www.unep.org

Qishloq xo`jaligi uchun xavfli meteorologik hodisalarning asosiylariga yilning iliq davrida qora sovuqlar, qurg`oqchilik, quruq issiq shamol garmsel, changli bo`ronlar, do`l, kuchli jalalar kirs qishda esa qattiq sovuqlar yaxmalak, muz qatqaloqlari, qorsizlik yoki qalin qor qoplami va boshqalar kiradi.

Qora sovuqning kuchi va davomiyligiga qarab uning zararli ta`siridan ekinlar qisman zararlanadi yoki butunlay nobud bo`lishi mumkin.


Qora sovuqlar vaqtida ekinlarni sovuq urishining asosiy sababi ,o`simlik hujayrasi protoplazmalarining suvsizlanishidir.

Chunki harorat 0°C gacha va undan ham pasayganida o`simlik hujayralari orasidagi suv muzlaydi va hujayradagi suvni shimib oladi. Hujayra shirasi quyushib, protoplazma suvsizlanib qoladi. Bundan tashqari ko`payayotgan muz kristallari hujayrani siqib shikaslantiradi.

Hujayralarning zararlanishi pirovardida o`simliklarning qisman yoki butunlay nobud bo`lishiga olib keladi.

Bunday iqlim sharoitida yuzaga kelgan hodisalar faqat ekinlarga emas balki har xil o`simliklarga ham zarar yetkazishi mumkin.

Bitta o`simlikning har xil qismlari qora sovuqlarga turlicha chidamlilik darajasiga ega. Gullash va tugunchalar hosil bo`lish davrida 0° C dan 2° C gacha qora sovuqlar hosilni butunlay yo`q qilishi mumkin. Piyoz, pomidor kabi o`simliklarda qora sovuqlardan dastlab barglari (-6° - 8°), toq shox-shabbali (-7° - 10°) larda shikastlanadi. Bu o`simliklarning shox-shabbalari, barglari nisbatan qora sovuqlargacha chidamliroq bo`ladi. O`simlikni sovuq urganda uning bargi sarg`ayib qoladi. Qora sovuqlar qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi uchun juda xavfli hisoblanadi. Ular bahor oxirida, yoz boshlanishida va kuzda kuzatiladi. Bunday hodisalar bo`lib turishiga relyefi tuprog`i holati o`simliklar va suv havzalarining borligi qora sovuqlarning bahorda to`xtashi, kuzda va boshlanish muddatiga kuchiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi. Ular bazan qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga zarar yetkazadi. Masalan 1999-yilning 22-24 aprel kunlari Arktikani sovuq havo oqimi Xorazm viloyatiga kirib kelishi natijasida harorat juda pasayishiga, yomg`ir va qor yog`ishiga sabab bo`lgan. Haroratning bunday pasayib ketishi ko`pchilik tumanlardagi qishloq xo`jalik ekinlariga mevali daraxtlarga o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatdi. Mazkur qora sovuq O`zbekistonning boshqa viloyatlariga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi. Bunday harorat pasayishi Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlarida aprel oyining birinchi yarmida ekilgan chigitlardan unib chiqqan maysalar 80-100 foizgacha shikastlandi. Shuningdek O`zbekistonning ko`p viloyatlarida sabzovot-poliz ekinlari, tut va tok daraxtlari ham past haroratidan shikastlandi. Shuning uchun dehqonlar bu ekinlarni qayta ekib iqtisodiy jihatdan katta zarar ko`rdilar. Bunday hodisalarga qarshi samarali kurashishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun dastavval ularning hosil bo`lishi tabiatini, viloyatimizning turli rayonlarida ularning takroriyli va jadalligini bilish kerak, qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligining bu hodisalarga bog`liq ravishda o`zgarishini o`rganish va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini kelgusida rivojlantirishda har bir rayonning tabiiy imkoniyatlarini to`g`ri baholash kerak.



ishlangan.

Xorazm viloyatida paxtachilik va g`allachilik asosiy o`rin tutishi tufayli maksimum haroratlar yig`indisidan to`g`ri foydalanish va aholi iste`moliga yetkazishda muhim tadbirlarni amalgaoshirish eng ustuvor vazifalardan biri deyishimiz mumkin. Qora sovuqni yanada eng muhim tomonlarini bilish, uning mamlakatimiz hududida taqsimlanishini kartalarda aks ettirish hozirgi zamonning talabidir. Bu masala bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va natijada bir qator kartalar tuzilgan. Kartalarni tuzish uchun GIS texnologiya usulidan foydalaniladi. Ularni tuzish natijasida GIS texnologiyadan foydalanish uslublari yaratildi va quyidagi: "Agrometeorologiyada munosabatli tenglamalarni topishda matematik statistikani qo`llash, EXM va Geografik axborot tizimlaridan foydalanish uchun ko`rsatma"

“O`zbekistonda agroiqlimiy sharoitda agrotexnologiya va g`o`za hosildorligi, GIS texnologiya uslubini agrometeorologiyada qo`llash, o`simlik qoplamini matematik modellari” va boshqa qo`llanmalar chop etildi. Shuni alohida takidlash mumkinki, so`nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi shuni ko`rsatmoqdaki zamonaviy texnika ma`lumotlaridan foydalanib agroiqlim resurslarini o`rganish Xorazm viloyati hududida keng miqyosda olib borilmoqda. Bu usul bugungi kunda yetarli samaralarini berib bormoqdqqa. Bu usul o`simlik va hayvonot dunyosi, yer resurslarining holati turli xil ayeroko`smik manbalar yordamida tekshirilib borilmoqda.

III-bob. Viloyatda ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jaligi tarmoqlarini rivojlantirish masalalari.

3.1 Ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda

Iqlimning o`rni.

Xorazm viloyatida bozor munosabatlariga o`tish davrida qishloq xo`jaligi tarmoqlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So`ngi yillarda Orol dengizining qurib borishi, uning oqibatida yuzaga kelgan tuzlarning shamol ta`sirida uchib borib ekin maydonlariga tushishi natijasida, yerlarning unumdorligi kamaymoqda, tuproqda zarur bo`lgan chirindilar yo`qolib borayapti. Bundan tashqari iqlimning keskin o`zgarishi oqibatida ham turli xil o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. Jumladan bahorning kech kelishi yoki qishning erta kelishi va haroratning birdan ko`tarilib yana birdan tushib ketishini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xorazm viloyatida iqlim o`zgarishi oqibatlari. Taxlillarga ko`ra Xorazm viloyatida iqlim o`zgarishi tufayli sodir bo`lishi mumkin bo`lgan oqibatlar qatorida quyidagilarni ko`rsatish mumkin.

1. Suv resurslari taqchilligining kuchayishi, qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi, qurg`oqchilik takrorlanishining ko`payishi (hozirgi davrda har 10 yilning 3 yilida)

2. O`rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o`sib borishi.

3. Yog`ingarchilikning yillik o`rtacha darajasining Xorazm viloyati butun hududi bo`ylab pasayishi va ularning hududlar, vaqt hamda miqdori bo`yicha notekis tarqalishi, haddan tashqari kuchli yog`ingarchilikni va umuman yog`ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi.

4. Qishloq xo`jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o`zgarishi.

5. Yuqori darajadagi jaziramalar takrorlanishining oshishi, harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog`liq muammolar ko`payishi.

6. O`simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallarning qayta taqsimlanishi demak, ekologik jarayonlar, beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalari tubdan o`zgarishi.

7. Saxrolanish jarayonlarining kuchayishi ya`ni, yashash va xo`jalik yuritish mumkin bo`lgan yerlarning kamayishi.

8. Qurg`oqchilik oqibatida shu yillari hosildorlik 10 sentenerga tushib ketishi.

9. Iqtisodiyot sektorlari ta`sirning to`liq taqsimlanishi va oldindan aniq aytish qiyin bo`lgan boshqa ko`pgina oqibatlar. www.unep.org-

Xorazm viloyatida iqlim o`zgarishiga qarshi kurash. Bugun Respublikamizda yoqilg`i-energetika obyektlarini yangilash qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish hamda inson hayot faoliyatida hosil bo`ladigan chiqitlarni utilizatsiya qilishga qaratilgan loyihalar va boshqalar ustida ish olib borilmoqda. Xalqaro tashkilotlar yordamida o`rmon o`tkazish va quyosh batareyalarini o`rnatish bo`yicha pilot loyihalari amalga oshirilmoqda. Iqlim o`zgarishi muammosi ustida bugungi kunda Xorazm viloyati olimlari tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli izlanishlar ham diqqatga sazovor bo`lib, bu izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalar ilgari surilmoqda:

--- Iqlim o`zgarishi sharoitida ekinzorlarning mikroiklimini maqbul ahvolga keltirish. Umuman mikroiklimni boshqarish.

--- Tuproqning sho`rlanish suratini keskin darajada sekinlashtirish choralarini ko`rish.

--- Suvni tejoychi uslublarni keng qo`llanishi orqali cho`llanish jarayonini sekinlashtirish.

--- Mahalliy daraxtlar yordamida degreatsiyalanuvchi yerlarda o`rmonchilikni tashkil qilish.

--- Tabiiy sovuqdan maqsadli foydalanish va boshqalar.

Albatta olimlarimiz tomonidan taqdim qilinayotgan yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish usullari ishlab chiqilgan bo`lib, ular bugungi kunda iqlim o`zgarishlarining salbiy oqibatlaridan himoyalanişda, qolaversa, qishloq xo`jaligini barqaror rivojlantirishga tog`ri yondashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan ko`rinib yuribdiki Xorazm viloyatida qishloq xo`jaligini rivojlantirishda agroiklim resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan kelib chiqqan holda amaliy tadqiqotlar olib borish lozim.

Xorazm viloyati Yangibozor tumani Bo`zqala xo`jaligida, Gurlan tumani Qoraqolpog`iston xo`jaliklari joylanishi jihatidan bir-biriga yaqin bo`lganligi sababli tuproq va iqlim sharoiti bir-biridan farq qilmaydi. Asosan joylanishi bo`yicha Amudaryoning o`ng sohili bo`ylab tarqalgan, hamda Urganch-Gurlan va Urganch – Xiva katta avtomobil yo`llari atrofida joylashgan.

Iqlim sharoitida ob-havoning o`rtacha harorati $+12,3^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilsa, eng issiq oy iyul bo`lib, o`rtacha oylik harorati $+27,9^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qiladi. Qishning sovuq oyi yanvar bo`lib, uning o`rtacha harorati -13°C ni, absolyut minimum harorati -23°C ni tashkil qiladi. Absolyut minimum harorati -42°C ni tashkil qiladi. Ob-havoning issiq sovuqligidan ko`rinib turibdiki havoda tez o`zgaruvchan iqlim sharoitida ya`ni yozi issiq qishi sovuq harorati bo`ladi. Yillik yo`g`in miqdori 92.6 mm ni tashkil qilib havoning eng kuchli namligi 75 foiz simob ustuniga havoning o`rtacha namligi esa 58 foiz simob ustuniga to`g`ri keladi. Eng katta suvning bug`lanishi esa o`simliklarning o`sish va rivojlanish davriga to`g`ri keladi. Bu davrda esa tuproq va havo harorati eng yuqoriga ko`tarilib bu esa tuproqda ikkilamchi nurlanish jarayoni kuchayishiga sabab bo`ladi.

Vohaning tuproqlari sahro-cho`l zonasi tuproqlari tipiga mansub asosan allyuvial yotqiziqli o`tloqi hamda o`tloqi soz tuproqlar asosiy maydonni egallaydi. Tuproqlar mexanik tarkibiga ko`ra o`rtacha qumoq, yengil mexanik tarkibli, sho`rlangan tuproqlardir. Sho`rlanish tipi bo`yicha kuchli sho`rlangan, ayrim hollarda sho`rxoklargacha sho`rlangandir. www.unep.org

Tuproqlar oziq moddalarga to`yinmagan, yani tuproqning haydalma qatlamida chirindi miqdori 0.8-1.0 foiz atrofida bo`lsa, 0.017 foiz harakatchan fosfor – 0.15 mg/kg, almashinuvi kaliy 0.200 mg/kg ni tashkil etadi. Bunday tuproqlarga gektariga 15-20 tonnadan go`ng solish, hamda almashlab ekishni to`g`ri yolga qo`yish talab etiladi. Sizot suvi sathi tuproq ustki qatlamidan 0.5 metrdan 2 metrgacha chuqurlikda

joylashgan bo`lib, uning tuzlanish darajasi 0.7 -32 gr litrgacha o`zgarib turadi. Tuproq qatlamlarini tuproq chuquri qazish orqali o`rganiladi.

3.1.1-jadval. Tuproqning morfologik belgilari.

Qatlam qalinligi sm.	Tuproq morfologik belgilari.
0-30	Qo`ng`ir kam zichlashgan, o`simlik ildizlari va har xil teshikchalar ko`p uchraydi. Har xil sariq va qo`ng`ir dog`lar uchraydi. Rangi bo`yicha qatlam o`zgarayapti.
30-42	Qo`ng`ir zichlashgan, o`simlik ildizlari va ulardan hosil bo`lgan teshikchalar uchraydi. Xar xil dog`lar bo`lib, zichliok bo`yicha qatlam o`zgarayapti
42-75	Och-qo`ng`ir, kuchli zichlashgan juda xam qo`ng`ir dog`lar uchraydi. Qatlam zichlik bo`yicha o`zgarayapti.
75-100	Qong`ir, kuchli namli, kam zichlashgan, sizot suvi tezligi o`rtacha tezlikda.

Tuproqdagi fizikaviy xususiyatlarni o`rganish asosan sayuz NIXI metodikasi asosida o`rganilib olingan natijalar quyidagi (3.1.2-jadval) jadvalda keltirilgan.

Qatlam qalinligi.	Hajm og`irligi, g/sm ³	Solishtirma og`irligi/sm ³	Maksimal nam sig`imi, foiz
0-10	1,35	2,75	1,29
10-20	1,33	2,75	1,20
20-30	1,34	2,76	1,20
30-50	1,40	2,71	1,10
50-75	1,47	2,73	1,07
75-105	1,42	2,74	1,00

Tuproq fizik xususiyatlarini o`rganish shuni ko`rsatadiki, tuproqning hajmi, og`irligi hamda maksimal nam sig`imi bo`yicha unchalik yaxshi bo`lmasada qishloq xo`jaligi, o`simliklar o`sishi uchun sharoit bor. Bu kamchiliklarni agroiqlimiy tadbirlarni tog`ri qo`llash orqali amalga oshirib, dehqonchilik ma`daniyatini yuksaltirish evaziga bartaraf qilish mumkin.

Xorazm viloyati hududida keskin o`zgaruvchan quruq iqlim sharoiti xukmron bo`lganligi sababli ekologik havfli vaziyatlarning yuzaga kelishiga juda katta ta`sir ko`rsatadi. Havo haroratining keskin o`zgarib turishi yil davomida o`rtacha 6 kecha va kunduz kuchli shamollarning yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. (Egamberdiyev, 2007)

Bir yil davomida hududda sodir bo`luvchi bu kabi kuchli shamollarning soni 25 dan oshadi. Ularning 60 foizi shimoli –g`arbdan keladigan shamollar natijasida yuzaga kelib Orol dengizining qurigan hududlaridan ko`p miqdordagi xloridli va sulfatli tuzlar hamda og`ir metalli chang g`uborlarni uchirib keladi. Ayrim vaqtlarda kuchli shamollar gektariga 25-30 m³ chang to`shmalarini (taxminan 450-500 kg ga) keltirib yotqizadi. Umuman olganda Xorazm viloyati hududida eng kuchli shamollarning tezligi 2001-2002 yillarda 9 m/sek ga yetgan bo`lsa, 2003-2004 yillarda bu ko`rsatgich pasayib 7,8 m/sek ni tashkil qildi. [28]

Cho`l zonasida shakllangan quruq iqlim sharoiti viloyat tabiiy geografik komplekslariga asosan hududning deyarli 90 foizni tashkil qiluvchi madaniy lanshaftlariga katta ta`sir ko`rsatib suniy sug`orish ishlarini olib borishni talab qiladi. Shu sababli gidrologik va gidrogeologik sharoit Xorazm vohasida ekologik havfsizlikni belgilovchi birlamchi omil bo`lib, shakllantirgan. Hududning ekologik havfsizligiga birinchi daryo suvlarining ta`minoti va mineralizatsiya darajasi alohida ta`sir ko`rsatadi. Jumladan Amudaryo suvining kamayishi natijasida hududda 2002 va 2008 yillarda ikki marotaba qurg`oqchil ekologik havfli vaziyat yuzaga kelgan. Viloyatda yuza suvlarining mineralizatsiya darajasi Amudaryo suvi tuz rejimiga bog`liq bo`lib, tuzlar miqdori 2004 yilda 0,7-0,9 g/lga yetadi.

O`z navbatida yuza suvlarining sho`rlanishi yer osti suvlari tuz rejimiga katta ta`sir ko`rsatadi. Hududda yer osti suvlari sathi va mineralizatsiya darajasi mavsumiy o`zgaruvchan bo`lib, ekologik havfli vaziyatlar asosan iyul oyida botqoqlanish, tuproq

sho`rlanishi, daraxtlar rivojlanishining sustlashishi, zax ko`tarilishi kabi ko`rinishlarda yuzaga keldi. Sholichilik hududlarida yer osti suvlarining yillik o`rtacha sathi 1-2 metr, janubiy cho`l va qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan yerlarda 5 metr va boshqa yerlarda 2-5 metrgacha o`zgaradi.

Ularning sathi iyul oyida viloyatning deyarli barcha hududlarida 1-2 metrga ko`tariladi. Ayrim yerlarda 1 metrdan ham yuqori bo`ladi.

Bu oyda yer osti suvlarining mineralizatsiya darajasi 1-3 g/l dan 10 g/l gacha yetadi. Sug`orilmaydigan hududlarda bu miqdor 20-50 g/l ni tashkil qiladi.

Shu sabab ham ekologik havfsizlikni belgilashda yer osti suvlarining iyul oyidagi ko`rsatgichlarini olgan maqsadga muvofiq. Biroq, Xorazm viloyatida yer osti suvlarining sathi ekinlar hosildorligiga ijobiy ta`sir qiladi va bu me`yor 1,5-2 metr bo`lganda yuqori hosil olish imkonini beradi. Bundan tashqari tadqiqotchilarning fikriga ko`ra, sizot suvlarining yer osti suvlariga yaqin joylashishi gidromorf rejimini hosil qiladi va qishloq xo`jaligi ekinlarini nam bilan taminlashda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Xorazm viloyatida yer osti suvlarining sayozligi va yuqori bug`lanish darajasi suvda erigan tuzlarni o`simlik ildiz zonasida to`planishiga olib keladi va tuproqning sho`rlanish darajasini oshiradi. Bilamizki, avval ta`kidlaganimizdek viloyat tuproqlari asosan shamollar uchirib keltirgan tuzlar ta`sirida ko`proq miqdorda sho`rlanadi.

Bugungi kunga kelib viloyatning 90 foiz hududi tuproq sho`rlanishi ta`siri ostida qolgan. Bu esa ekin hosilining 50 foizgacha tushib ketishiga olib keldi. Xorazm viloyatida haydaladigan yerlarning 50 foizi har xil darajada sho`rlangan bo`lib, shundan 15 foiz kichik darajada, 20-26 foiz o`rtacha va 10-15 foizi juda kuchli sho`rlangan hisoblanadi. (ZEF, 2004 yil).

Tuproqning tuz tarkibida asosan xloridli va sulfatli tuzlar ustunlik qiladi va ularning tarqalishi yuqori 2m.li kesmada 50-833 t/ga.ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtda Xorazm viloyati O`zbekistonning eng sho`rlangan mintaqalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari iqlimiy omillar va antropogen ta`sirga bog`liq ravishda keng maydonlarda sho`rxoklar shakllangan. Ular daryoning qadimgi allyuvial yomon suv o`tkazuvchi yotqiziqlari cho`kmalarida Amudaryoning zamonaviy qayir allyuvial

tekisliklarining yosh yotqiziqalarida va Unguz orti Qoraqumining ona jinsi allyuviyalaridagi tepaliklararo cho'kmalarida, tashlandiq yerlarda, quruq o'rmonlarda yer osti suvlarining sathi 1,0-1.5 metr bo'lgan joylar uchun qulay sharoit yaratadi.

Umuman olganda Xorazm viloyatida ekologik havfsizligini belgilovchi omillar ichida tuproqning sho'rlanganlik darajasi asosiy ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligining pasayishi asosan shu ko'rsatgichlarga bog'liq.

Bundan ko'rinib turibdiki iqlim ta'sirida bo'ladigan jarayonlar ta'sirida qishloq xo'jaligi katta zarar ko'rishi mumkin. Bunga misol qilib Orol va Orolbo'yida salbiy oqibatlarni keltirish kifoya. Keyingi 10 yil moboynda Orol dengizining qurishi jarayonida Orolbo'yi mintaqasida iqlim sharoitini sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelmoqda. Ilgari Orol sovuq havo masasini yumshatadigan ulkan 'tancha', issiq yoz oylarida esa jazirama issiq havoning kuchini qirqib o'ziga xos 'kondisioner' vazifasini bajargan. Iqlimning keskinligi tufayli hududda yoz juda quruq, qish esa uzoq va sovuq bo'lmoqda. Orolbo'yi yerlaridagi hududlardagi yerlarda vegetativ mavsum 180 kunga, atmosferdagi yog'ingarchilik bir necha barobarga qisqardi. Bu iqlim o'zgarishlari Xorazm viloyatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti.

Xorazm viloyatida barqaror havo haroratining ko'tarilishini ko'rsatmoqda. Isishning o'rtacha tezligi 1950 yillardan buyon viloyatda global isish tempidan ikki barobar ko'p ya'ni har 10 yillikda 0.29°C ni tashkil qilgan. Iqlim o'zgarishinin yaqqol hududiy o'zgarganlik ko'rsatgichi sifatida kontinentallikning kuchayishi ya'ni issiq va sovuq kunlar o'rtasidagi tafovutlarning ortishini olish mumkin. Masalan, Orol bo'yida $+40^{\circ}\text{C}$ dan oshgan kunlar 2 barobarga, O'zbekistonning boshqa viloyatlari kabi Xorazmda 1.5 barobarga oshgan.

Bulardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, iqlim o'zgarishlarining bevosita ta'siri ostida cho'llanish va suv tanqisligi muammosi keskinlashishi mumkin. Shuning uchun bugun Xorazm viloyatida yashayotgan har bir inson oldingidek ko'p miqdorda yoki o'zi xoxlaganicha suvga ega bo'lishi qiyinligini chuqur anglashi lozim. Buning ustiga viloyat aholisi va bizga suv yetib keluvchi qo'shni davlatlar aholisi doimiy

o`shida. Bu esa suv resurslarining katta ehtiyojiga sabab bo`ladi.Undan samarali foydalanish lozim.

Oxirgi 150 yil davomida inson faoliyati natijasida atmosferadagi uglerod qo`shoksidi (CO₂) ortgan. CO₂ zaxarli emas o`simliklar uchun ozuqa hisoblanadi.CO₂ qisqa to`lqinli quyosh nurlarini o`tkazadi, lekin yerdan qaytarilgan uzun to`lqinli issiqlik nurlarini ushlab qoladi. Natijada 'issiqxona effekti' vujudga keladi.Yerning o`rtacha harorati (+15⁰) 0,8-1⁰C ga oshganligi qayd qilinmoqda.Yoqilg`ining ko`plab ishlatilishi muammoni keskinlashtiradi.Atmosferada metan (CH₄) va azot chala oksidi ((N₂O) miqdorining ortishi 'issiqxona effektini' kuchaytirmoqda va iqlim o`zgarishini keltirib chiqarmoqda.Inson faoliyati natijasida toboro ko`proq chiqarilayotgan CO₂ gazini o`simlik va okeandagi fitoplankton yutib ulgura olmaydi. Iqlim o`zgarishi bo`yicha xalqaro ekspertlar guruhi fikricha, agar ahvol shunday davom etadigan bo`lsa,yaqin 50 yil ichida harorat 2-4⁰ C ga oshishi mumkin.Bu muzliklarning erishi va quruqlikni suv bosishi, ob-havo sharoitlarining keskin o`zgarishlariga olib kelishi bashorat qilinadi. 1 t. metan 21 tonna CO₂ ga teng miqdoda issiqlik effektini hosil qiladi. 1 tonna gidroftoruglerod esa minglab tonna karbonat angidridga ekvivalentdir.

Insoniyat uzoq yillar davomida quyoshning issiqlik taftidan o`zining xo`jalik faoliyatida foydalanib kelmoqda.Shunga qaramasdan iqlimiy resurslardan ancha samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud.www.unep.org-

Viloyatda harorat 10⁰ dan yuqori bo`lgan davrlarda Xorazm viloyatiga qarashli Xiva tumani, Qo`shko`pir va Yangiariq tumani hududlarida yil davomida issiq haroratning yig`indisi 4900 dan 5020 gacha yetadi.Viloyat bo`yicha o`rtacha ko`rsatgich esa taxminan 4890 ga teng.Vegetatsion davrdagi atmosfera yog`inlari miqdori 39 mm dan 46mm ga to`g`ri keladi.Qo`shko`pir va Xiva tabiiy rayonlar guruhi juda issiq hududlar bo`lib,ulardagi ijobiy haroratlar yig`indisi 4900 dan yuqori.Janubiy Xorazm hududida sug`orma dehqonchilik natijasida juda ko`p miqdordagi suv bug`lanishga sarf bo`ladi.

Shunga binoan viloyatda ijobiy haroratlar yig`indisi 4766 ga teng.Atmosferaning tabiiy namgarchiligi bo`yicha uchala hudud ham GTK jihatdan o`ta qurg`oqchil hudud bo`lib,u 0.11 dan kichik.

Xorazm viloyatida rivojlanayotgan hamda kengatib borayotgan suniy sug`orish oqibatida aholi tamonidan o`ziga xos iqlimiy sharoit vujudga keltirilgan. Havo harorati vohalarda cho`lga nisbatan kunduzi 5-6 darajada past. Kechqurun 5-6 daraja yuqori bo`ladi. Sutkalik havo haroratining farqi vohalarda uning atroflariga qaraganda 10-12 daraja past bo`lishi kuzatiladi.

Xorazm viloyati cho`llarida kunduz kuni iyun, iyul oylarida radiatsiya kirim chiqimi $0,65-0,75 \text{ kkal/sm}^2$ minutga yetsa vohada albedo qisqarishi tufayli bu ko`rsatgich 1 kkal/sm^2 minutga teng. Shu yo`l bilan sug`oriladigan yerlarda albedo 30 foizga kamayadi. Havodagi nisbiy namlik miqdorining farqi cho`lga nisbatan vohada 15-20 foiz ko`pligidan voha havosida namlikning yetishmasligi uncha katta emas.

Viloyat hududidagi ko`llar va suv obyektlarida ham shamol bo`ladigan davrlarda haroratning pasayishiga hamda havo namligining oshishiga sababchi bo`ladi. Sug`orma dehqonchilik olib boriladigan vohalarning atrofdagi cho`llarga tasiri doirasi 3-6 km ga yetadi.

Bazan odamlar o`zlarining bilvosita ta`sirlari bilan havo qatlamining isitib qo`yadilar. Urganch, Xiva va boshqa shaharlardagi isitish tizimlaridan 50 foizga yaqin issiqlik havoga chiqib ketadi, natijada shaharlar ikki yo`l bilan isiydi:

- a) Binolarning sovuqni to`shishi natijasida
- b) Isitish tizimlaridan chiqqan issiqlik bilan ochiq yerlarga nisbatan shahar va qishloqlarning qurilishi hamda ixota daraxtzorilarining shamolning yo`nalishini qisman o`zgartirishida va tezligining sekinlashtirishi natijasida.

O`rtacha bir oyda viloyat hududining har bir kv metr joyiga 8.4 gramm yoki viloyat bo`yicha bir yilda 40 mln. tonna atrofida chang tushadi. Atmosferani ifloslanishi iqlimiy omillarga ham bog`liq, ayniqsa havoning juda ifloslanishi antisiklon davriga to`g`ri keladi. Bunday ob- havo sharoitida shtil (sokinlik) viloyatda 282 dan 465 marotabagacha takrorlanadi. Agar havoda siklon davri kuzatilsa ayrozollar quyiqlashmasdan tarqalib ketadi. www.econews.uz

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1.Hozirgi taraqqiyot bosqichida asosiy vazifalardan biri iqlimiy sharoitni yanada chuqurroq o'rganish, landshaft xususiyatlarini hisobga olib iqlim resurslaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'lida yanada kengroq foydalanish .

2.Ilmiy texnika rivojlanishining hozirgi bosqichida tabiiy muhitni , atmosferani , iqlimiy resurslarni muhofaza qilish davlat ahamiyatidagi ishlardan biri bo'lib barcha tashkilotlar bu borada ish olib bormoqda. Lekin ularning samarasi ancha past . Kelajakda ifloslantiruvchi markazlar bo'lgan sanoat karxonalari ,traktor, avtomobillar , zaxarli chiqindilar, qishloq xo'jalik ekinlarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan vositalar va xo'jalik chiqindilarini bartaraf qilish uchun keskin chora tadbirlar ko'rish lozim.

3.2 Viloyat agrosanoatini rivojlantirishda agroiqlimiy resurslardan samarali foydalanish.

Amudaryo havzasining eng rivojlangan regionlaridan biri Xorazm viloyati hisoblanadi.Bu yerda qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Viloyatda 2000-yilda 223700 gektar ekin maydonlari mavjud bo'lgan bo'lsa 2010-yilda 221400 gektar ekin maydoniga kamaydi.

Paxta yalpi hosili ham kamayib bordi.1997-yil 323696 tonna,1998-yil 216898 tonna 1999-yil 290055 tonna 2000-yil 199007 tonna 2008-yilda 181716 tonna 2009-yilda 176238 tonna paxta hosili yetishtirildi.Huddi shu tarzda boshqa qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi ham kamayib borishi kuzatiladi. Bularning barchasi Orol dengizining qurib borishi va uning oqibatida yuzaga kelgan iqlimning o'zgarib turishi cho'llashish jarayoning kuchayishi oqibatida kelib chiqmoqda desa bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yerlarning meleorativ holati buzila boshlandi, eroziya jarayonlari kuchayib ketdi.Buning oqibatida barcha turdagi xo'jaliklarning davlat oldida qarzdor bo'lib qolishiga olib keldi.Iqlimning o'zgarib turishi ekinlarning hosildorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bahorning kech boshlanishi va qishning erta boshlanishi tufayli hamda haroratning kech o'zgarishi tufayli qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo`jaligida sodir bo`layotgan iqtisodiy inqirozning oldini olish uchun kompleks tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun viloyatda yashovchi har bir aholi suv resurslaridan nihoyatda tejab foydalanishni o`rganishlari zarur. Barcha sug`orish tizimlarini chuqurlashtirish asosida maydonni kamaytirishga e`tiborni kamaytirish kerak.

Tomchilatib sug`orishni tezlik bilan joriy etish va bu borada ilg`or xorijiy tajribalarni o`rganish maqsadga muvofiq. Demak bularning barchasi viloyat dehqonchiligida tub islohotlar o`tkazilishini isbotlamoqda. Xorazm viloyatida paxtachilikni Orol inqirozidan kelib chiqqan holda va viloyat olishi mumkin bo`lgan issiqlik rejimi nuqtai nazaridan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Malumki Xorazm viloyati Qoraqolpog`iston Respublikalari kabi dunyoda paxta yetishtiriladigan eng shimoliy mintaqalardan biri hisoblanadi. Olimlarning o`tkazgan tadqiqotlariga ko`ra shu ma`lum bo`ldiki, paxtachilikda har 100 metr shimolga siljigan sari uning hosildorligi 5 sentenerga kamayishi aniqlangan. Bundan tashqari ekinlarni tomchilatib sug`orish borasidagi Isroil va boshqa davlatlarda yetishtiriladigan paxta texnologiyasini qo`llashni o`zlashtirish borasida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq. Viloyat dehqonchiligi tarmoqlari ekin maydonlari tarkibiga o`zgarishlar kiritilib, uning hududiy joylashishi bo`yicha ,ayniqsa g`alla, bog`dorchilik, uzumchilik va issiqxonalar tashkil ettirish yo`nalishida qishloq xo`jaligini qayta qurish zarur bo`lib qolmoqda.

Paxtadan bo`shagan maydonlarda oq jo`xori, kungaboqar, arpa, tariq, beda, yem-xashak ekinlari yetishtirish va ularning istiqbolida chorvachilikni taraqqiy ettirish suv resurslari tanqisligi paytida samara berishi mumkin. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirish maqsadida paxta ekiladigan maydonlarda intensiv g`allachilikni rivojlantirishni taqazo qilmoqda.

Viloyat paxtachiligi majmuiga ham talaygina o`zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Paxtachilik majmuida turli xil tashkilotlar bilan loyihalarni rejalashtirish lozim. Bu loyihalar quyidagi yo`nalishlarni o`z ichiga oladi
Paxta urug`chiligini takomillashtirish.
Xalqaro andozalarga mos ravishda paxta tolasini ishlab chiqarish.
Bunga erishishdasifatli tola ishlab chiqarish ko`zda tutiladi.

G`o`zani har xil kasalliklardan himoya qilish.

Iqlimiy resurslardan to`gri foydalangan holda ekin turlarini tog`ri taqsimlash.

Suvdan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish, sug`orishni avtomatlashtirish, suv sarfini tejash va sug`orishning atrof muhitga ta`sirini kamaytirish choralarini ko`rish. Viloyatda paxtani ikkilamchi qayta ishlashga e`tiborni kuchaytirish dolzarb muommaligicha qolmoqda. Bu muommoni amaliy jihatdan hal etishda respublika prezidenti I.A. Karimovning mamlakatda paxta tolasining 28-30 foizi qayta ishlash borasidagi qo`ygan vazifalaridan kelib chiqib ish tutmoq zarur, deb hisoblaymiz. Gurlan va Shovot to`qimachilik kombinatiga o`xshash bir necha kombinatlar ishga tushirildi.

Paxtani ikkilamchi va uchlamchi qayta ishlash orqali viloyatimizda to`qimachilik tikuvchilik sanoat korxonalarida ipli gazlama ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo`lindi. Viloyatimizda ortiqcha mehnat resurslarining mavjudligi yuqoridagi tarmoqlarni rivojlantirish uchun imkoniyat beradi.

Ko`p mehnat talab qiladigan mehnat resurslarining mavjudligini yuqoridagi tarmoqlarni rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi.

Ko`p mehnat talab qiladigan ip yigirish, to`qish, pardoqlash tarmoqlarini, to`qimachilik sanoatini rivojlantirish tayyor mahsulotlar assortimentini kengaytirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

Yuqoridagilar viloyatimizda qo`shimcha foyda olish, imkoniyatlarini yaratibgina qolmay mehnat unumdorligini ham yuqori pog`onaga ko`tarish imkoniyatlarini yaratadi.

Jahon bozorida 1 tonna paxtaga nisbatan yigirilgan ipning qiymati 1,5-2 marta, uning gazlamaga aylantirilgan tayyor mahsuloti esa 7-8 marta qimmat turadi.

Binobarin 1 tonna paxta tolasini regionning o`zida to`qimachilik korxonalarida to`la qayta ishlash natijasida 8,5-10 marta ko`p foyda olish mumkin.

Viloyat paxtachilik majmuida `uchlamchi` qayta ishlashni qayta yana ham samarali bo`ladi. Bunda gazlamadan trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish ham soha iqtisodiy samaradorligini bir necha barobar oshishi mumkin. Viloyat paxta tolasining tayyor mahsulotlar chiqarishi O`zbekistonning jahon bozoridagi mavqeyini yana ham mustahkamlaydi.

Qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini joylashishi va ixtisoslashishi xususiyatlarini ilmiy asoslangan holda takomillahtirish viloyat ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hamda ixtisoslashtirishni ta`minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligini oqilona joylashuvini faqatgina hozirgi zamon moddiy texnika bazasi taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanish hususiyatlari bilan uyg`unlashgan holda olib borilsagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin, shuningdek mustaqillik sharoitida mehnat taqsimoti istiqbollarini har jihatdan hisobga oluvchi ilmiy uslubiyatlarga tayangan holdagina amalga oshirish yaxshi natijalar beradi. Buning uchun avvalo viloyatda ishlab chiqaruvchi mahsulotlar tarkibi va hajmi aniqlab olinishi maqsadga muvofiq. Bunda mamlakat xalq xo`jaligining mazkur viloyatga bo`lgan talabi ham e`tiborga olinishi lozim. www.econews.uz-

Bozor iqtisodiyoti sharoitida viloyat qishloq xo`jaligi o`zining mehnat taqsimoti tamoillariga tayangan holda hamda mahalliy shart –sharoitlar uchun mos va samarali tovar mahsulotlari shu vaziyatda qishloq xo`jalik mahsulotlarining markazlashgan jamlanmalari shakllantirish imkoniyati paydo bo`ladi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, avvalo ushbu mahsulotlarni yetishtirish birinchi navbatda mazkur viloyat uchun samarali bo`lishi maqsadga muvofiq.

Mahalliy aholining mazkur mahsulotga bo`lgan talablari ham inobatga olinishi kerak. Shu tufayli birinchidan viloyatning muayyan mahsulotga bo`lgan ehtiyojini aniqlash ikkinchidan, viloyat korxonalarining ishlab chiqarish va boshqa regionlarga eksport qila olishning real imkoniyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda qishloq xo`jalik mahsulotlarini eksport qilish avvalo qishloq xo`jaligi tarmoqlarini strukturasi o`zgartirishga e`tibor berish zarur. Buning uchun qishloq xo`jalik mahsulotlarining qayta ishlaydigan korxonalar texnologiyasini zamonaviy jihozlar bilan qurollantirishga e`tiborni qaratishdan iborat.

Qishloq xo`jaligi tizimida kichik va o`rta korxonalar faoliyatini har tomonlama kuchaytirish ularga kredit olishda ko`maklashish, hatto xorijiy texnologiyalarni olish uchun investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan uyishtirish nihoyatda zarur. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishini oqilona joylashtirish va ixtisoslashuvini takomillashtirish asosiy tamoil aholi ehtiyojidan kelib chiqqan holda iqtisodiy va mamuriy birliklarda,

shirkatlar dehqon fermer xo`jaliklarida ushbu hudud tabiiy va iqtisodiy sharoitlarida yuqori mahsuldorlikka erishish mumkin bo`lgan qishloq xo`jalik ekinini va chorva turini yetishtirishdan iborat.

Viloyat qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish va ixtisoslashtirish yer va mehnat resurslar, asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish imkonini berish bilan birga qishloq xo`jaligi yalpi mahsulotlari hajmini oshishiga ham yordam beradi.

Ushbu vazifaning ijobiy hal etilishi viloyat qishloq xo`jaligini ilmiy asosda tashkil etilishini taqazo etadi. Bu o`z mohiyatiga ko`ra murakkab ekologik sharoitlarda ham aholi ehtiyojidan ortiqcha qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini beradi. Xorazm viloyatining bugungi taraqqiyot bosqichida mavjud obyektiv iqtisodiy qonuniyatlarni amaliyotga tadbiiq qilish, xo`jalik yuritishning ilg`or yutuqlarini tezlik bilan joriy etish asosiy vazifa bo`lmog`i lozim. Ayniqsa har bir regionning mahalliy, tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o`rganish uning imkoniyatlarini kadastrlik asosida kompleks baholash hozirgi kun talabi hisoblanadi.

Viloyat qishloq xo`jaligida kooperatsiyalashuv jarayonlari ancha zaif rivojlangan. Uni rivojlantirmasdan turib ko`zlagan maqsadga erishib bo`lmaydi. Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini oqilona joylashtirish uning ixtisosligini takomillashtirish ilmiy asosda tashkil qilish uchun istiqbolli amaliy ko`rsatmalarni ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalasi bo`lmog`i kerak.

Viloyat qishloq xo`jaligida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va xom ashyodan kompleks foydalanish nafaqat mahsulot ishlab chiqarishning sifatini balki miqdorining oshishiga ham yordam beradi.

Viloyat iqlimi tuproqlari holati va insonlarning mehnatsevarligi murakkab ekologik vaziyatlardan chiqib keta olishga imkon yaratadi.

Agroiqlim reurslarining va iqlim o`zgarishlarining qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga ta`sirining baxolashning o`tkazilgan taxlili 10-20 yil istiqbolga asosiy qishloq xo`jalik ekinlarini joylashtirish sxemalarini tubdan qayta ko`rib chiqish talab qilinmasligini ko`rsatdi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqlim o'zgarishiga javob berish tadbirlarini ham Respublikaning ijtimoiy iqtisodiy barqaror va havfsiz taraqqiyoti bo'yicha tadbirlar kompleksi bilan ham cho'llashish va qurg'oqchilikka qarshi kurash doirasida davlatlararo suv siyosati bilan muvofiqlashtirish zarur.

Qishloq xo'jalik moslashuvining konkret variantlari yer fondi va suv resurslaridan foydalanishni optimizatsiyalash, shu jumladan suv xo'jaligi va irrigatsion tizimlar rekonstruksiyasi, suvni tejavchi texnologiyalarni strukturasi yaxshilash, yuqori hosilli qurg'oqchilikka chidamli navlarni joriy qilish, ilg'or agrotexnik tadbirlar o'simlikshunoslikni olib borish texnologiyasini qo'llash, o'gitlardan foydalanish, o'simliklar qoplami regeneratsiyasi, yaylovlar fitomelioratsiyasi samaradorligini oshirish oqimining shakllanishi zonasi va cho'l rayonlarida yog'inlar miqdorini oshirish uchun faol ta'sir ko'rsatuvchi vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Sugoriladigan dehqonchilikda iqlimning o'zgarishiga moslashish bo'yicha tavsiyalarga asosan oziq-ovqat va texnik ekinlar hosildorligini oshirish zarurati bilan bog'lidir.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

__ Sho'r bosgan yerlarni melioratsiyasini o'tkazish;

__ Suv va shamol eroziyasining oldini olish va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

__ Gidromeliorativ tizimlar parametrlari va iqtisodiy ko'rsatgichlarini optimizatsiyalash, ulardan foydalanishni takomillashtirish.

__ Mahalliy yer yuza oqimi asosida liman sug'orish tizimlarini yaratish, polimer kompozitlarni qo'llash va tuproqni isitish yo'li bilan tuproq va o'simliklarning suv rejimini yaxshilash;

__ sug'oriladigan yerlarda o'simlikshunoslikni mexanizatsiyalash darajasini oshirishni, agrotexnik va agrokimyoviy tadbirlarni o'tkazish tartibi, hajmi va muddatlarini ta'minlash.

__ Iqlimning kutilayotgan o'zgarishida sug'oriladigan yerlarda yiliga bir yarimdan ikki-uch hosilgacha olish imkonini beradigan kech kuzgi ekinlardan foydalanib, almashlab ekishni ta'minlash.

— Iqlimning umumiy oʻsishi va karbonat angidrid gazi konsentratsiyasining oshishi fonida qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligini oshirish imkoniyatini beradigan oʻsimliklarni mineralli va havodan ozuqalanish sharoitini yaxshilash;

— Qurgʻoqchilik, kasalliklar va zarakunandalarga chidamli yangi turlar va navlarni joriy qilishni hisobga olib, muntazam ravishda ekinlar struktusi va qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishni takomillashtirish.

Oʻzbekiston choʻl zonasining tabiiy yaylovlarida yem-xashak ekinlari hosildorligini oshirish uchun quyidagilr zarurdir;

— kuzgi qishgi ekilgan yaylovlar va himoya oʻrmon zonalarini yaratish.

— Togʻoldi rayonlarida bahor-yozgi ekilgan yaylavlar va pichanzorlar yaratish.

— taqirlar va taqirsimon tuproqlarda mahalliy yuza oqimidan foydalanib shoʻra yaylovlarini yaxshilash;

— Shuvoq-shoʻrali yaylovlarni yaxshilash;

— Yaylov oʻsimliklari tarkibini yaxshilash orqali qumli choʻlda yaylovlarning ozuqa sigʻimini oshirish;

— yer osti va drenaj tashlama suvlaridan foydalanib sugʻoriladigan ozuqa yetishtirishni rivojlantirishni taʼminlash;

Yaylovlarni saqlab qolish maqsadida hozirgi vaqtda va iqlimning oʻzgarishi sharoitida birinchi navbatda mollarning tartibga solinadigan boqilishini taminlash, haddan tashqari mol boqishga yoʻl qoymaslik zarurdir.

Buning uchun yaylov oʻsimliklarining holati va rivojlanishi ozuqa zahiralari toʻgʻrisida maʼlumotlarga ega boʻlish kerak.

Bunga yaylovlar monitoringi orqali erishish mumkin.

XULOSA

Viloyatda yillik o`rtacha yog`in miqdori 79-110 mm gacha o`zgaradi va uning 6 foizi (5mm) yoz, 14 foizi (11mm) kuz, 43 foizi (34mm) bahor va 37 foizi (29mm) qish oylariga to`g`ri keladi. Havoning nisbiy namligi kuz va qish fasllarida 42-85 foizni, maydan-sentyabrgacha 35-53foizni tashkil etadi.

Havo harorati kuchli qiziganda 5 sm balandda nisbiy namlik miqdori taqir yerlarda 13foizga, beda dalalari ustida esa 55foizga teng bo`ladi. Agar havo harorati beda dalalari ustida tuproqning 5 smli yuza qismida 31⁰Cga teng bo`lsa,shu balandlikdagi o`simliksiz terlarda 41⁰C gacha ko`tariladi.

Tuproq yuzasining harorati yoz oylarida o`rtacha 37⁰Cgacha,eng yuqori harorat tuproqning 20 smli qatlamida +58 +60⁰Cga yetadi.

Qish oyida tuproq yuzasining o`rtacha harorati -36⁰C, eng past harorat esa -10 - 11⁰C gacha pasayib ketadi.

Taxlillarga ko`ra Xorazm viloyatida iqlim o`zgarishi tufayli sodir bo`lishi mumkin bo`lgan oqibatlar qatorida quyidagilarni ko`rsatish mumkin.

1.Suv resurslari taqchilligining kuchayishi,qor qoplami kunlarining 7-10 kunga kamayib borishi,qurg`oqchilik takrorlanishining ko`payishi(hozirgi davrda har 10 yilning 3 yilida)

2.O`rtacha haroratning oshishi, yillik issiq davrlarning 10-15 kunga o`sib borishi.

3.Yog`ingarchilikning yillik o`rtacha darajasining Xorazm viloyati butun hududi bo`ylab pasayishi va ularning hududlar,vaqt hamda miqdori bo`yicha notekis tarqalishi,haddan tashqari kuchli yog`ingarchilkn va umuman yog`ingarchiliksiz kunlar soninig ortishi.

4.Qishloq xo`jaligida yetishtirish uchun maqbul ekinlar tarkibi butunlay o`zgarishi.

5.Yuqori darajadagi jaziramalar takrorlanishining oshishi,harorat rejimi kuchayishi natijasida aholi salomatligi bilan bog`liq muammolar ko`payishi.

6.O`simliklar va hayvonlarning aksariyat turlari yashaydigan areallarning qayta taqsimlanishi demak,ekologik jarayonlar,beriladigan mahsulotlar va bajariladigan funksiyalari tubdan o`zgarishi.

7.Saxrolanish jarayonlarining kuchayishi ya`ni,yashash va xo`jalik yuritish mumkin bo`lgan yerlarning kamayishi.

8.Qurg`oqchilik oqibatida shu yillari hosildorlik 10 sentenerga tushib ketishi.

9.Iqtisodiyot sektorlari ta`sining to`liq taqsimlanishi va oldindan aniq aytish qiyin bo`lgan boshqa ko`gina oqibatlar.

Iqlim o`zgarishi muammosi ustida bugungi kunda Xorazm viloyati olimlari tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli izlanishlar ham diqqatga sazovor bo`lib,bu izlanishlar natijasida quyidagi tavsiyalar ilgari surilmoqda:

- Iqlim o`zgarishi sharoitida ekinzorlarning mikroiqlimini maqbul ahvolga keltirish.Umuman mikroiqlimni boshqarish.

-Tuproqning sho`rlanish suratini keskin darajada sekinlashtirish choralarini ko`rish.

- Suvni tejoychi uslublarni keng qo`llanishi orqali cho`llanish jarayonini sekinlashtirish.

- Mahalliy daraxtlar yordamida degreatsiyalanuvchi yerlarda o`rmonchilikni tashkil qilish.

- Tabiiy sovuqdan maqsadli foydalanish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I.A. O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O`zbekiston", 1997. 110-137 betlar.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O`zbekiston, 1998.
3. Allaberganov T.X. Prirodniye usloviya Xorezmskogo oazisa i ego rayonirovaniya. Toshkent. "O`qituvchi", 1976. C.143.
4. Baratov P. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, "O`qituvchi", 1996. 264 b.
5. Vsemirnaya meteorologicheskaya organizatsiya, nash budushiy klimat. BMO, 2003.
6. Berdin B.X., Vasilyev S.V., Danilov-Danilyan V.I., Kakorin A.O., Kurayev C.H. Kiotskiy protokol – voprosi i otveti. WWF Rossii, Rossiyskiy rehgionalniy ekologichiskiy sentr, Nasionalniyi uglerodnoe soglasheniya. -- M., 2003. C.136. www.wwf.ru.
7. Komilov O.K. O`zbekiston sho`r tuproqli yerlarida sug`orish sistemasini yaxshilash. Toshkent: FAN, 1985. 72-77-Betlar.
9. Pervie desyat let PKIK. Sekretariyat PKIK.- Bonn, Germaniya. 2004
www.unfccc.int, www.ru.
10. YuNEP. Izmeneniye klimata – spravochniye material. 2004 www.unep.ch.
11. Pervoe nasionalnoe sobsheniya respubliki Uzbekistan po Pamochnoy konvensii OOH ob izminenniye klimata. – Tashkent, 1999. – 112b.
12. Vliyaniye izmeneniya klimata na ekosistemi. Oxranyayemie prirodniye teretorii Rossiyii. WWF.-M.: WWF, 2001. C.146. www.wwf.ru.
13. Grabb M., Vrolik K., Brek D.. Kiotskiy protocol. Analiz i interpretatsiya. Per.c angl. Red. russkogo izdaniya L. Skuratovskaya, a. Kokorin, -M.: Nauka, 2001. C.303. www.wwf.ru.
14. Grab M. i dr. Stratigicheskii analiz kioto- marrkeshkoy sistemi. Per.s angl. Red. russkogo izdaniya L. Skuratovskaya, A. Kokorin. WWF Rossii. RIIA, Imperial kollej London, World Council of churches.-M., 2003. C.12.-ww.wwf.ru

15. Zinchenko A. V.

Mejdunarodnaya metodika inventarizatsii vibrosovarnikovix gazov. - cpb.: NPK
"Atmosfera". 2003

16. Izrael Yu. A., Gruza G. B., Katsov B. M., Meleshko B. P.

Izmeneniya globalnogo klimata. Rol antropogennix vozdeystviy. 2001. № 5

17. Stsenariy vibrosov. Rezyumedlyalisopredelyayushix politiku

/Spesialniy doklad rabochey gruppy SHMGEIK, VMO/YuNEP. – Jeneva, 2000:

18. Globalnaya ekologicheskaya perspektiva 2000: Doklad YuNEP

OSostayaniye okrujayusheysredivkonsetisyacheletie. - YuNEP, 1999

19. Voda i ustoychivoe razvitie Sentralnyy Azii. - Bishkek: Elita, 2001.

20. Ilyasov S. H. A., Rodina E. M., Yakimov V. M. Inventarizatsiya parnikovix
gazov. Qirg'iziston, 1990-2000 godi. - Bishkek, PROON, GEF, 2003.

21. Izmeneniya klimata: obzor sostayaniya nauchnix znaniy ob antropogennom
izmeneniye klimata / Kokorin A. O.: RRES GOF. WWF Rosii.

22. Taktomishv S. J., Semyonov V. K. Ozonoviye diri i klimat gornogo regiona
Sentralnoy Azii. SGAM: Istanbul/Turkey, 2001.

23. The Asian Brown Cloud: Climate and other Environmental
Impacts. UNEP, Nairobi, 2002.

24. Chen V. V., Sverdlik L., Zyskova E. Estimation of aerosol mass loading on
glacier of Central Asian. Proc. SPIE, 2006. Vol. 6160.

25. Dikix A. N. Problemi i prognoz razvitiya oledeneniya i vodnosti rek Sentralnyy
Azii // voda i ustoychivoe razvitie Sentralnyy Azii. -- Bishkek, 2001. S. 88-92.

26. Petrov Yu. V., Egamberdiev X. T., Xolmatjonov B. M. Meteorologiya i
klimatologiya. Obsheobrozovatelniy kurs. - T., 2005

26. Klimat v kredit. Posobiye dlya detey i ministrov. - M., 2004.

28. Iqlim o`zgarishi/Izmeneniye klimata//Metodicheskoe rukovodstva, na uzbek i
rus. yazykax. - T., 2005

29. Iqlim o`zgarishi/Izmeneniye klimata//Spesionalniy kurs na uzbek i rus
yazykax. - T., 2005.

30.Nasionalniy doklad o sostayaniye okrujayeshiy sredi i ispolzovaniye prerodnix resursov v Respublike Uzbekistan.-T.,2008.

31.Ekologicheskie indikatori dlya Uzbekistana.Sb.statey.-T.,2006.

32.Nigmatov A.N., Shivaldova N.S.,Sultonova R.N Ekologiya va barqaror rivojlanish O`quv qo`llanma T., 2004.

33.Nigmatov A.N va boshqalar. Barqaror rivojlanishning geografik jihatlari.- T.:Talqin,2007.

34.Ekologik ta`limdan barqaror rivojlanish ta`limi sari/A.N.Nigmatovning ma`sul muharrirligida T.,Talqin,2007.

35.Kiseleva N.P.,Litvenseva E.V.,Povlov A.G Viberi budeshi segodnya:kniga dlya tex,komu jit v 21 veke.Posobie dlya uchiteley.

36.Alamanov S.K.,Lelevkin B.M.,Podrezov A.O. Izmeneniya klimata i vodnie problemi v Sentralnoy Azii.Uchebniy kurs dlya studentov yestesvennix i gumanitarnix spetsialnostey.

37.Qurbonniyozov R. Xorazm geografiyasi.Urganch.1996.10-15 b.

Veb saytlar

www.climate.uz- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologik xizmatlar Markazi (O`zgidromet)/YuNEP ning iqlim o`zgarishi bo`yichama`lumotlar beriladigan sayti.

www.unep.org- BMTning atrof-muhit bo`yicha dasturi.

www.unisef.int- iqlim o`zgarishi bo`yicha BMTning doiraviy konvensiyasi (IO`BRK) Kotibiyati.Konvensiyaning hujjat va qarorlari,yangiliklar,turli mamlakatlardagi issiqxona gazlarining chiqishi haqidagi ko`rsatkichlar,iqlim o`zgarishi muammolari bo`yicha hukumatlarning rasmiy ma`ruzalari,Kioto bayonnomasi va uning ratifikatsiyaga doir ma`lumotlar arxivi.

www.econews.uz- O`zbekiston ekologik ma`lumotlar portali.

www.oecd.org – Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT).U barcha rivojlangan davlatlarni birlashtiradi IHRDga a`zo va iqtisodiy o`tish davrida turgan davlatlarning iqlim o`zgarishiga oid faoliyatlar haqida ma`lumotlar

beriladi. Meyor, siyosat va issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish chora tadbirlari bo'yicha metodik qo'llanma.

www.iea.org - Xalqaro energetika agentligi. energiyadan samarali foydalanish bo'yicha ma'lumotlar.

www.panda.org (WWF International) - Butunjahon yovvoyi tabiat fondi. BYoTF ning "yangi energetika – yangi hayot" dasturidagi iqlim o'zgarishini ekotizimlarga ta'siri haqida ma'lumotlar.

www.wwf.ru - Butunjahon yovvoyi tabiat fondi-BYoTF ning iqlim dasturi, yangiliklar, maqolalar kutubxonasi, glossariy (BYoTF – Rossiya).

www.rusrec.ru - Rossiyaning mintaqaviy ekologik markazi. Tahliliy materiallar va yangiliklar. Atrof-muhit iqtisodiyoti. Iqlim o'zgarish muammolari va Kioto bayonnomasi.

www.pewclimate.org - (Pew Center on Global Climate Change) iqlim o'zgarishi muammolaridan tashvishga tushayotgan tadbirkorlar, siyosatchilar va olimlarni birlashtirishga oid ma'lumotlar. Iqlim siyosati bo'yicha materiallar, yangiliklar, maqolalar.

www.accord.cis.lead.org - Barqaror rivojlanish va atrof-muhit muammolari bo'yicha markaz. Yangiliklar, voqealar xronikasi. Xalqaro ekologik kelishuvlarga doir ma'lumotlar. Iqlim o'zgarishi va Kioto bayonnomasiga kirgan ekologik muammolar haqidagi ma'lumotlarga murojaatlar.

[www.unfccc.int/national/reports/nonDannexi_natcom /items/2979.php](http://www.unfccc.int/national/reports/nonDannexi_natcom/items/2979.php) - Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMTning doiraviy konvensiyasi (IO`BRK) kotibiyati. Unga turli davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston tomonidan iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy ma'ruzalar kiritilgan.

www.gefweb.org - global ekologiya fondi. Tabiatni muhofaza qilish, jumladan energetikani rivojlantirish va issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish loyihalari.

www.europa.eu.int/scadplus/leg - Yevro Ittifoqi tomonidan Kioto bayonnomasining bajarilishi va issiqxona gazlarini chiqarishni kamaytirish bo'yicha qabul qilingan qaror.

www.natkarbon.ru- "Milliy uglerod kelishuvi", iqlim o`zgarishi muommolarini hal qilishning iqtisodiy samaradorligidan manfaatdor Rossiya kompaniyalari asotsatsiyasi.

www.pointcarbon.com- Xalqaro uglerod bozorining holatiga doir tahliliy materiallar va ma`lumotlar.

www.ozon.uz- Ozon qatlamini saqlash va global iqlim o`zgarishiga doir ma`lumotlar.

www.nmo.inf- Butun jahon meteorologik tashkilot sayti.

Mundarija:

Kirish.....	2
I- bob. Xorazm viloyati tabiiy geografik o`rniga qishloq xo`jaligi jihatidan baho berish.....	5
1.1.Viloyat tabiiy geografik o`rnini agroiqlimning shakllanishidagi ahamiyati..	5
1.2.Viloyatda qishloq xo`jaligini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi omillar.....	10
1.3.Agroiqlim resurslarining tuproqning shakllanishidagi o`rni.....	12
II-bob. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida agroiqlimiy resurslaridan samarali foydalanishning kelajakdagi istiqbollari.....	15
2.1 Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarilishida agroiqlim resurslaridan samarali foydalanish.....	15
2.2 Viloyatda paxtachilik va don xo`jaligini rivojlantirishda agroiqlimiy resurslarning ahamiyati.....	23
III-bob. Viloyatda ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.....	33
3.1 Ekologik inqiroz sharoitida qishloq xo`jalik tarmoqlarini rivojlantirishda iqlimning o`rni.....	33
3.2 Viloyat agrosanoatini rivojlantirishda agroiqlim resurlaridan samarali foydalanish.....	42
Xulosa.....	49
Foydalanilgan adabiyotlar.....	51